

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI



“DARSLIKLAR BILAN ISHLASH METODIKASI”

fani bo‘yicha

O‘QUV USLUBIY MAJMUA

Namangan – 2024

Mazkur o'quv uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2024-yil _____dagi _____-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan na'munaviy o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan:

Tuzuvchi:



M.Usmonov

Taqrizchi:

**Babaxanova
Diloromxon
Axmatxanovna**

– Namangan davlat universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Kafedra mudiri:



U. Qo'ziyev

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi Filologiya fakulteti Kengashining 2024__ yil “__” avgustdagi “__” - son majlisida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

SO‘Z BOSHI

"Darsliklar bilan ishlash metodikasi" fanini o‘qitishdan maqsad: fanning ilm-fan, iqtisodiyot va ishlab chiqarishdagi o‘rni, o‘quvchilarning turli fan sohalariga oid bo‘lgan bilimlarni egallashlarida, shu bilimlarni egallashga oid ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlarida o‘rni va ahamiyati katta bo‘lgan o‘quv darsliklaridan foydalanish usullari, berilgan materiallarning shakl va mazmun xususiyatlari, yutuq va kamchiliklarini tahlil qilishdan iborat. Bu talimning turli bosqichlarida qo‘yiladigan umumiy maqsad va vazifalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Darsliklar bilan ishlash metodikasi fani o‘zbek tili va adabiyoti talim yo‘nalishi bo‘yicha yetuk kadrlar tayyorlash, ona tili va adabiyot o‘qitish metodikasi yo‘nalishidagi ilmiy-metodik tadqiqotlarni rivojlantirish, talim tizimida ona tili va adabiyot o‘qitishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘quv fanining asosiy vazifalari:

- ta‘lim berish va ta‘lim olish darslikdan boshlanishini tushuntirish;
- talabalarga zamon talablariga mos ravishda darsliklar bilan ishlashning eng qulay va zamonaviy metodlari to‘g‘risida bilim berish;
- ularga qo‘yiladigan kasbiy talablar asosida Ona tili va adabiyot fanini zamon talablari darajasida o‘qitishning samarali metodlari, shakl va usullari haqidagi nazariy bilimlarni o‘zlashtirishini ta‘minlash;
- respublika ta‘lim sohasi uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash;
- ta‘lim bosqichlaridagi darsliklarning tuzilishi, tarkibi, mazmuni, darslikni tahlil qilishga oid metodik yondashuvlar, yetakchi tamoyillar, shuningdek, ona tili va adabiyot o‘qitishda darsliklar bilan ishlashning turli zamonaviy metod va usullaridan foydalanish tizimini ishlab chiqish va tavsiya etishdan iborat.

O‘quv uslubiy majmua nazariy va metodik ta‘minot qismlaridan tashkil topgan bo‘lib, birinchi qismda nazariy va metodik ma‘lumotlar tahlil etilib, innovatsionpedagogik tavsifda mulohazalar bayon etiladi. Ikkinchi qismida esa talabalarda nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar, glossariy, testlar banki, grafik organayzer ko‘rinishidagi ilovalar, foydalanilgan o‘quv-ilmiy adabiyotlar hamda internet saytlari ro‘yxati berilgan.

Ushbu O‘quv uslubiy majmuani tayyorlashda mashhur tilshunos olimlarimiz G‘.Abdurahmonov, To‘xliyev, M.Qodirov, H.Ne‘matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva R.Niyozmetova, I.Boltaboyeva, Roziqov O. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, M.Sobirova, V.Qodirovlar hamda rus tilshunoslar O.Y.Bogdanova, S.A.Leonov, V.F.Chertov, A.D.Jijina, V.G.Maransuman T.V.Chirkovskaya kabilarning ilmiy asarlaridan, shuningek, internet ma‘lumotlaridan foydalanildi.

1- MAVZU: ONA TILI DARSLIKLARI, ULARGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Ta'lim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalari amalga oshirishda qo'llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o'z ichiga oladi. Bu ishlarni amalga oshirishning shakllangan va amaliyotda qo'llanilayotgan har turli usullari va shakllari asosida ko'plab ta'lim metodlari hosil bo'lgan va bu jarayon davom etmoqda. Muayyan ta'lim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat bo'lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o'ziga xos ta'lim metodini hosil qiladi.

Darslik – davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, uslubi va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g'oyasi singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fanning asoslarini mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan xamda turdosh ta'lim yo'napishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr

Darslik tuzish har bir mutaxassisdan yuqori mas'uliyat, bilimdonlik, tajriba va bilim talab etadi va uni tuzishda quyidagilarga rioya qilish kerak:

- har bir darslik yuksak g'oyaviylik va ilmiylik asosida tuzilishi zarur. Dastur mazmuniga mos kelishi kerak;
- qulay va ixcham bo'lishi;
- fikrlar aniq va ravshan, bilimlar jonli bo'lishi;
- uslubiy tomonlar kuchaytirilishi;
- amaliy yo'naltirilishi;
- predmetlararo o'zaro bog'liqlik nazarda tutilishi zarur.
- Har qaysi o'quv fani uchun yaratiladigan darslikda ilmiy bilimlar tizimi va uning hajmi dastur talablariga hamda shu sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan bo'lishi kerak.
- Darslikda bayon kilingan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari va g'oyaviy yo'nalishi tizimli va izchil bo'lishi, darslikda keltirilgan dalillarning ishonchli bo'lishi, ular to'g'ri tahlil, aniq ta'rif etilishi, tegishli xulosalar chikarilishi hamda shu orqali o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, eng yaxshi insoniy fazilatlar tarkib topishini ta'kidlashi lozim.
- Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'langan bo'lishi kerak.
- Darslikda bayon kilinayotgan materialning xarakteriga bog'liq holda tegishli qoida va ta'riflar berilishi, dalillar keltirilishi hamda darslik yaxshi bezatilgan bo'lishi, ba'zi materiallar rasm, sxema, diagramma va boshka illyustratsiyalar bilan boyitilishi talab etiladi.
- Darslik o'quvchilar tushunishi oson bo'lgan jonli tilda yozilishi, ayni zamonda fikrlar anik va qisqa bo'lishi kerak.
- Darslikda ta'lim mazmunining muhim komponentlari o'z ifodasini topgan bo'lishi lozim: tabiat, jamiyat, texnika, insoniyat, faoliyat usullari, tushuncha va iboralar to'g'risidagi nazariy bilimlar, nazariya va qonuniyatlar, metodologik va qimmatli fikrlar bo'lishi kerak.

- Darslik materiallari o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, ma'naviyat, axloqiy-hulqiy tushuncha va odatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

- Unda materiallarning izchil, sistemali bayon etilishiga, bilish metodlari bilan uzviy bo'lishga e'tiborni qaratish kerak.

- Darslikda o'quvchi ijodiy qobiliyatini, bilish imkoniyatlarini oshirish, mustaqil bilishni shakllantirish yuzasidan topshiriqlar, ko'rsatma, yo'l-yo'riqlar, tavsiyalar beriladi.

- Metod – (grekcha “metodos” so'zidan olingan bo'lib, yo'l, ahloq usuli ma'nolarini anglatadi). Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo'li, usuli yoki qiyofasi, shakli, ko'rinishi.

- Ta'lim metodi – o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli. Belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullari majmuasidir.

- *Yozma bahslar” metodi*

- Bu metod o'quvchilarga o'quv xonasidagi tengdoshlari bilan birgalikda shu onda jamoatchilik fikrini to'liqlantirayotgan mavzularda muloqotlarni rejalashtirish imkonini beradi. Uslub o'quvchilarning berilgan mavzu sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish sharoitini yaratish, munozara madaniyatini o'rgatish va o'z fikrini asoslash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

- Bu metoddan foydalanishda o'qituvchi o'quvchilarni baholash uchun asos xizmatini o'tovchi ajoyib materialga ega bo'ladi. Yozma bahslar uslubiyoti bunday muloqotlarni o'quv xonasidagi barcha o'quvchilar ishtirokida yozma shaklda o'tkazish imkonini beradi.

- Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- O'quvchilar bahs mavzusi bilan oldin o'tkazilgan mashg'ulotda tanishadilar. Bahs arafasida o'qituvchi bo'lajak mavzu to'g'risida o'quvchilarga axborot berar ekan, bahslar qay yo'sinda o'tishini qisqacha tushuntiradi (bu, albatta, bahslar birinchi marta o'tkazilayotgan bo'lsa, juda ham muhimdir).

- O'qituvchi guruh o'quvchilarini ikkiga ajratadi va ularni o'quv xonasining ikki tomoniga qator qo'yilgan stollar atrofida yuzma-yuz holatda o'tkazadi va har bir guruh qatnashchilari qaysi nuqtayi nazarni himoya qilishlarini belgilaydi (masalan, 1 -guruh – ijobiy holat joriy qilinishi tarafdorlari, 2-guruh – bunga qarshilar).

- Shundan so'ng o'qituvchi O'quvchilarni juftliklarga ajratadi, har bir juftlikda qarama-qarshi qarashlar tarafdorlari bo'lishi kerak. Juftliklarni tartib raqami yoki alifbo harflari bilan belgilanadi. Agar o'quv xonasida o'quvchilar soni toq bo'lsa, o'qituvchi munozaraga yetishmagan sherik huquqida qatnashishi mumkin. O'qituvchi 1-guruh o'quvchilariga (keltirilgan misolda – ijobiy holat joriy qilinishi tarafdorlari) har bir juftning raqami (harfi yoki ramzi) bilan belgilangan katak qog'oz varaqlarini tarqatadi

- O'quvchilar o'quv xonasining ikki tomonida o'tirib, juftma- juft yozma muloqotni boshlaydilar. 1-guruh o'quvchilariga o'zlari makullayotgan nuqtai nazar

foydasiga bitta ochiq dalilni shakllantirish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Ular bu dalilni qog'oz varag'iga puxta tahrir qilingan paragraf shaklida yozadilar. Bu vaqtda 2-guruh o'quvchilari o'zlari bahs jarayonida bayon etishlari mumkin bulgan nuqtayi nazarlarini isbotlashlari mumkin.

- Yozilgan varaqlar qarshi guruhdagi sheriklarga (ijobiy holatning joriy qilinishiga qarshi chiquvchilarga) beriladi. Ularga juftlik bo'yicha sheriklarining dalillariga qarshi javob topish va yozish uchun hamda o'z qarshi dalillarini bayon qilishlari uchun 8 daqiqa vaqt ajratiladi.

- Dalillar almashishning bunday tartibi 2-3 marta takrorlanadi bunda har bir o'quvchi sherigining dalil-isbotiga javob qaytarishi va o'zining aks dalilini keltirishi shart. O'quvchilarning bilimlarini aniqlash uchun 3-4 raund etarlidir. Ohirgi raundda o'quvchilarga yakuniy paragrafni yozish imkoni beriladi. Shundan so'ng yozma ish yig'ib olinadi.

- Bahslarni samarali yakunlashning eng qulay shakli – ikkala tomonga qaratilgan savoldir: “Qarshi tomonning eng yaxshi dalil- isbotlari qaysilar bo'ldi?” Har ikkala tomon vakillari qarshi taraf yozgan fikrlarni o'qib yuqoridagi savolga javob beradilar.

- O'qituvchi ishni yakkama-yakka yoki juftlik bo'yicha baholashi mumkin. Agar o'qituvchi yozma ishni baholashni rejalashtirgan bo'lsa, bu haqda o'quvchilarni darsning boshidayoqogohlantirishi kerak.

- Ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarda yozma bahslar usulidan foydalanish davomida quyidagi jadval ko'rinishda keltirilgan tarqatma materialdan foydalanish mumkin:

Bunda o'quvchilar 2 guruhga ajratilib hozirgi kundagi amaldagi kitob darsliklar va elektron darsliklarning yaxshi va yomon taraflarini tahlil qilishadi. 1-guruh elektron darsliklarning avzal taraflarini misol qilib o'z fikrini barchaga yetkazib berishga xizmat qiladi.

2-guruh esa amaldagi kitob darsliklarni himoya qiladi.

Darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- motivatsion vazifa - bu vazifa o'quvchilarni ushbu fanni o'rganishga yo'naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag'bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat;

- axborot vazifasi o'quvchilarga axborotlarni etkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari o'ajmini kengaytirishga imkon beradi;

- nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi – ta'lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o'quvchilarda o'zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo'lgan ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun o'rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi.

- muvofiqlashtirish vazifasi -material ustida ishlash jarayonida ta'limning boshqa vositalari (haritalar, ko'rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi;

- rivojlantiruvchi -tarbiyalovchi vazifasi - darslik mazmunining o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat;

- o‘qitish vazifasi - darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo‘lgan konpekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko‘rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko‘zga tashlanadi.

- **Elektron darslik** - kompyuter texnologiyasiga asoslangan o‘quv uslubini qo‘llashga, mustaqil ta’lim olishga hamda fanga oid o‘quv materiallar, ilmiy ma’lumotlarning har tomonlama samarador o‘zlashtirilishiga mo‘ljallangan bo‘lib:

- - o‘quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;
- - o‘quv materiallar verbal (matn) va ikki o‘lchamli grafik shaklda;
- - multimedia (multimedia - ko‘p axborotli) qo‘llanmalar, ya’ni ma’lumot uch o‘lchamli grafik ko‘rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda;

- taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o‘quvchini “ekran olamida” stereo nusxasi tasvirlangan real olamga kirishi va undagi ob’ektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

7-MA’RUZA

MAVZU: ADABIYOT DARSLIKLARIGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

REJA:

1. Adabiyot darsliklari.
2. Darsliklar yaratish bo‘yicha qilinayotgan ishlar.
3. Darsliklarga qo‘yiladigan zamonaviy talablar.

Savol va topshiriqlar:

1. Zamonaviy darslik tushunchasini izohlab bering.
2. Adabiyot darsliklarining yangi avlodiga xos bo‘lgan o‘zgarishlarni tushuntiring.
3. DTS, dastur, darslik terminlarining izohini yozing.

GLOSSARIY

Davlat ta’lim standarti – davlat tomonidan ta’lim oldiga qo‘yiladigan talablar majmui. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti o‘quvchilar umumta’lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo‘yiladigan majburiy minimal darajasini belgilab beradi.

Dastur – eng muhim davlat hujjati bo‘lib, o‘qituvchining ish faoliyatidagi eng asosiy manba, uni bajarish majburiydir. O‘qituvchining asosiy vazifasi davlat dasturi talablarini to‘la va samarali amalga oshirishdan iborat. Shunga ko‘ra ham o‘qituvchi uni to‘la bilishi, barcha qismlari haqida aniq tasavvur va ma’lumotga ega bo‘lishi kerak.

Darslik – o‘quvchilar bilimining izchil o‘sishiga, ilmiy asosga tayanishiga imkon beradigan, bolalarning yoshi hisobga olingan, mavzularning mantiqiy

aloqadorligiga e'tibor qaratilgan asosiy o'quv quroli. Undagi material orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar targ'ib qilinishi, o'quvchilardagi yuksak axloqiy va estetik didning shakllanishi va tarbiyalanishiga xizmat qilinmog'i lozim.

Zamonaviy darslik – davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g'oyasi singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarining mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan, did bilan ishlangan rasmlar bilan boyitilgan matbaa sifati yuqori bo'lgan o'quv quroli. Ularda bugungi fan-texnika yutuqlari, zamon **yangiliklari**, yangi texnologiyalar aks etmog'i kerak.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqi. 1997- yil 29- avgust. Toshkent, Sharq, 1997.

2. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent, "Sharq", 1999, 1-maxsus son.

3. "Uzluksiz ta'lim jarayonini o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlash muammolari" respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, O'ZPFITI, 2001.

4. Otaxonova S. Darsliklar haqida. "Ma'rifat" gazetasi. 2004- yil 9- iyun, №46.

5. To'ychieva M. Adabiyot darsliklaridagi savol va topshiriqlar haqida. Til va adabiyot ta'limi. 2005, 3-son, 17-20-betlar.

O'quvchilarning turli fan sohalariga oid bo'lgan bilimlarni egallashlarida, shu bilimlarni egallashga oid ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarida o'quv darsliklarining o'rni va ahamiyati juda katta. Bu ta'limning turli bosqichlarida qo'yiladigan umumiy maqsad va vazifalar bilan chambarchas bog'liqdir.

1-Prezidentimiz Islom Karimov bu haqda shunday degan edilar: "Hamмамizga ayonki, ta'lim darslikdan boshlanadi. Achchiq bo'lsa ham, tan olishga majburiyatimiz: deyarli barcha sohada darsliklarimiz ahvoli bugungi va ertangi kun talablari darajasida emas. Bir narsaning ahamiyatiga yetib borishimiz zarur, aziz do'stlar, vatandoshlarim! Eski qolipda, mustabid davrda yozilgan darsliklardan foydalanib, eski mafkuradan xalos bo'lmasdan bolalarimizni yangicha fikrlashga o'rgatolmaymiz, axir. Buni barchamiz tushunishimiz, anglashimiz darkor. Olimlar orasida darslik yozishga pastroq bir ilmiy ish sifatida qarash illati bor. Nega bunday? Bu psixologiya qayerdan paydo bo'lgan? Axir, darsliklarda millat fikrining, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg'or namunalari aks etishi kerak emasmi? Har bir soha bo'yicha darslikni o'sha sohaning atoqli vakillari yozmaydilar? Biz darslik yaratishga eng ilg'or va eng sharaflil vazifa sifatida qarashimiz, yaxshi darslik yaratgan odamlarni boshimizga ko'tarishimiz kerak. Darslikni, agar kerak bo'lsa, katta tanlov asosida yaratish lozim. Tanlov g'oliblaridan mablag'ni ayamasligimiz lozim..."

Endilikda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5–9-sinflaridagi Adabiyot darsliklarining barchasi tanlov(tender) asosida yaratilayotganligining guvohi bo'lib

turibmiz. Bu jarayon davom etmoqda. Shuning uchun ham darsliklarning mazmuni yildan yilga boyib, sifati tobora yaxshilanib bormoqda.

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun talablaridan kelib chiqqan holda Adabiyot darsliklaridagi materiallar:

- “ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta’limning uzluksizligi va izchilligi;
- ta’lim tizmining dunyoviy xarakterda ekanligi” (3-modda) bilan belgilanadi.

Adabiyot darsliklari o’quvchilarning milliy mafkura asosida shakllanadigan dunyoqarashlarida muhim rol o’ynaydi. Yuqorida 1-Prezidentimizning darsliklar haqidagi mulohazalarini ko’rib o’tdik. Bu bezovtalik bejiz emas. Sifatli, yaxshi darslik mukammal dars, puxta bilim, o’quvchilarning mustaqil, ijodiy ishlarini yo’lga qo’yish degani hamdir. Bugina emas, yaxshi darsliklar o’quvchilar egallaydigan bilimlarning hajmi va sifatini ham kafolatlaydi. Demak, darslik tufayli biz pedagogik maqsad sifatida ko’zda tutadiganimiz asosiy holat – aks aloqani ham ta’minlagan bo’lamiz.

Ko’pgina olimlarimiz darsliklardagi asosiy kamchiliklarni faqat uning mazmuni bilangina emas, balki shu mazmuni ochib berishga qaratilgan shakl va usullarning nomunosibligi bilan ham bog’lashadi. Buning ustiga darsliklar bilan ishlash metodikasining puxta ishlanmaganligi, yosh, tajribasiz o’qituvchilarimizning bu boradagi no’noqliklari ham o’quvchilarning darslik ustidagi ishlashga oid ko’nikma va malakalarining tez, puxta shakllanishiga xalaqit beradi. O’quvchilarning adabiyotga oid bilimlari, adabiy didlari, so’zni his etishlari, badiiy adabiyotning sir-sinoatini tushunib, undan zavq tuyishlariga oid bo’lgan jarayonlarni, shu jarayonlar bilan aloqador bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning shakllanishini qay tarzda barqaror va mustahkam qilish, ularni tezlashtirish mumkin bo’ladi. Buning ustiga adabiyotning o’quv predmeti sifatidagi o’ziga xosliklarini ham nazarda tutish kerak bo’ladi. Zero, har qanday bilim – ko’pincha aqliy mehnat mahsuli sifatida tasavur etiladi. Bu o’qish-o’qitish jarayonining o’zi tegishli ko’nikmalarning shakllantirilishiga asos bo’ladi, degan gap. Biroq Adabiyot bilishdan tashqari his etishni ham taqozo etadiki, Adabiyot darsliklarida mana shu o’ziga xoslik diqqat markazida tutilishi kerak bo’ladi.

Davlat ta’lim standarti, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” hamda “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, namunaviy o’quv dasturlari asosida darslik yaratilishini, undagi materiallar ushbu hujjatlar talablariga javob berishi lozimligini ta’kidlagan holda shuni aytish joizki, ta’lim-tarbiya tizimining barcha bo’g’inlari mana shu talablarni amalga oshirish uchun astoydil harakat qilmoqda. Endilikda umumiy o’rta ta’lim maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, texnikumlar, oliy ta’limning bakalavriat va magistratura bosqichlari uchun davlat ta’lim standartlari, namunaviy o’quv dasturlari, darsliklar, o’quv qo’llanmalarining yangi avlodi yaratildi. Mamlakatimiz ta’lim tizimidagi yangi bo’g’in – texnikumlar va kasb-hunar maktablari uchun ham me’yoriy hujjatlar komplekslari muvaffaqiyat bilan shakllantirilmoqda. Umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun til va adabiyot fanlaridan davlat ta’lim standartlari yaratildi. Shu asosda o’quv rejalari, fan dasturlari tuzildi. Bugungi kunda ularga munosib

ravishdagi darsliklarga ham egamiz. Xo'sh, bu darsliklar qanday talablar asosida yaratilgan? Bu darsliklar birinchi navbatda DTS talablariga javob berishi kerak.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajasini belgilab beradi. Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini ham belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sohalarini me'yorlashni hamda maktabning moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'ladigan davlat hujjatidir. Tayanch o'quv rejasi o'quv predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmdagi miqdorini ifodalaydi. U har bir sinfda muayyan o'quv predmeti bo'yicha davlat standartlariga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun Adabiyot fanidan Davlat ta'lim standarti mavjud. Uning yangi avlodi ish tajribalaridan kelib chiqqan holda tuzilmoqda.

Demak, Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, darsliklar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- Davlat ta'lim standarti talablariga javob berishi;
- dastur asosida yaratilishi;
- yo'riqnoma (konsepsiya)ga muvofiq bo'lishi;
- ta'lim bosqichlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikka javob bera olishi;
- hajm jihatidan katta bo'lmasligi;
- tili sodda, ravon, tushunarli bo'lishi;
- tanlangan asarlar (parchalar) o'quvchining yoshiga mos bo'lishi;
- asar tanlashda uning turi va janriga ham juda katta e'tibor berilishi kerak.

Adabiyot darsliklariga asar tanlashda esa quyidagi tamoyillariga diqqatni qaratish lozim deb hisoblaymiz:

- o'rganish uchun tanlangan asar o'quvchilarning qiziqishlariga mos kelishiga e'tibor berish;
- asar mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar o'quvchiga tushunarli bo'lishi;
- ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega asarni tanlash;

– asar qahramonlarining ruhiyati va xarakterini o‘quvchi tasavvur hamda his qila olishini hisobga olish;

– tanlanadigan asar til jihatidan tushunarli bo‘lishini yoki o‘quvchida tushunish bilan bog‘liq ko‘plab qiyinchiliklar tug‘dirmasligi, asar tilining hozirgi adabiy til me‘yorlariga yaqin bo‘lishiga e‘tibor berish;

– tanlangan asar badiiy jihatdan yuksak bo‘lmog‘i, o‘quvchiga estetik ta‘sir ko‘rsata oladigan, uning badiiy didini tarbiyalashga, ma‘naviy yuksaltirishga xizmat qiladigan bo‘lishi;

– mavzu va janrlari xilma-xil, uslubi rang-barang asarlarni tanlashga e‘tibor berish;

– o‘quvchi yoshiga mos, hajm jihatidan juda katta bo‘lmagan asarlarni mo‘ljallash.

Adabiy ta‘limni to‘la amalga oshirishda darslik muhim ahamiyatga ega. Ta‘lim tizimidagi yangilanishlar darsliklar mazmuni va tuzilishini ham tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Darslik o‘quvchilar bilimining izchil o‘shishiga, ilmiy asosga tayanishiga imkon berishi, bolalarning yoshini hisobga olish, mavzularning mantiqiy aloqadorligiga e‘tibor berishi lozim. Unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar targ‘ib qilinishi, o‘quvchilardagi yuksak axloqiy va estetik didning shakllanishi va tarbiyalanishiga xizmat qilmog‘i lozim. Darslik, birinchi navbatda, o‘quvchini qiziqtiradigan, faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, bolani faoliyatga, amaliy ishga chorlaydigan bo‘lishi, uning mustaqil fikrlashiga, ijodiy izlanishiga, ichki imkoniyatini ro‘yobga chiqarishiga yordam berishi zarur. O‘quvchiga kerakli yordam o‘qituvchi tomonidan emas, darslik tomonidan berilishi kutilayotgan natijani samarali qiladi. Chunki o‘qituvchi topshiriqni muallimning buyrug‘ini bajarish uchun emas, balki o‘z kuchiga ishongan holda bajaradi. Unda dadillik, ishonch, tirishqoqlik ortadi. Boshqa vositalarga qaraganda darslik eng qiziq yoki tushunishi qiyin bo‘lgan o‘rinlarga qaytish va ularni keyinchalik mukammal o‘ylab ko‘rish imkonini berish bilan ustunlikka ega. O‘quvchining doimiy hamrohi. Uyda, maktabda, xohlagan vaqtda foydalanishi mumkin bo‘lgan darslik o‘quvchida yaxshi xulq tarkib topishida dastlab o‘ziga jalb eta oladigan, qiziqtiradigan, o‘ylantiradigan, o‘tish davri yoshdagilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan bo‘lishi lozim.

Xo‘sh, zamonaviy darslik qanday bo‘lishi kerak? Zamonaviy darslik davlat ta‘lim standarti, o‘quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g‘oyasi singdirilgan, muayyan o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, tegishli fan asoslarining mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta‘lim yo‘nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan, did bilan ishlangan rasmlar bilan boyitilgan matbaa sifati yuqori bo‘lishi lozim. Darsliklarda bugungi fan-texnika yutuqlari, zamon talablari, yangi texnologiyalar aks etmog‘i kerak. Adabiyot darsliklarida adibning hayoti va ijodi aks etadi. Bunda nimalarga e‘tibor berish kerak? Yozuvchining hayoti va ijodidagi qaysi nuqtalar o‘quvchilar uchun muhim hisoblanadi. Metodist olim Golubkov bu haqda shunday deydi: “Darslikdagi yozuvchining hayoti va ijodi haqidagi ma‘ruza uchun quyidagi qoidalar taklif etilgan:

- 1) Yozuvchining san'atkor va mutafakkir sifatidagi o'ziga xosligi nimadan iborat?;
- 2) Uning ijod namunalarida davr bilan qanday bog'liqlik kuzatiladi?;
- 3) Yozuvchining uslubi qay tarzda rivojlangan, uning ijodiy yo'lidagi asosiy bosqichlar nimalardan iborat edi?;
- 4) Adib ijtimoiy hayotga hamda adabiyot tarixiga qanday hissa qo'shdi?"

Turli sinfdagi o'quvchilarga asar tanlashda ularning yosh hamda adabiy tayyorgarlik darajasi hisobga olinishi shart.

Agar darsliklarda matnlarning berilishi haqida to'xtaladigan bo'lsak, ularning bir necha xil ko'rinishlarini qayd etish mumkin. Bularning orasida asosiy matn ustuvor mavqe tutadi. Asosiy matn deganda biz bevosita badiiy asarning o'zini nazarda tuamiz. U qaysi tur va janrga aloqador bo'lmasin, o'quvchi uchun asosiy o'rganish obyekti bo'ladi. Hikoyalash-tavsiflash ruhidagi talqin va tahlillar ham shu siraga kiradi.

Ba'zan darsliklardagi materiallarga qo'shimcha ma'lumotlar ham zarur bo'lib qoladi. Bular sirasiga muayyan tarixiy davr, alohida olingan ijodkor to'g'risidagi mashhur kishilar, ijodkorning zamondoshlari tomonidan aytilgan fikr va e'tiroflarni kiritish mumkin. Tarixiy hodisa yoki badiiy asarning parchalarini ko'rsatuvchi hujjatlar, arxiv va qo'lyozma manbalardagi ma'lumotlar shu vazifani ado etadi.

O'rni bilan izohlash-tushuntirish yo'nalishidagi materiallar ham kerak bo'lib qoladi. Qahramonning muayyan vaziyatdagi xatti-harakatlari, muayyan joy yoki urf-odatlar izohi shunday usulni taqozo etadi. Alohida terminlarni, tushunchalarni izohlash, adabiy-nazariy tushunchalarga beriladigan izoh va sharhlar shular jumlasiga kiradi.

Darsliklarning bezatilishi ham alohida o'rin tutadi. Hozirgacha adabiyot darsliklarining katta qismida rasm va boshqa illyustratsiyalardan juda kam foydalaniladi. Rasmlar asosan ijodkorlarning oq-qora rangdagi portretlaridagina iborat xolos. Ularda turli jadvallar, sxemalar, diagrammalardan foydalanish imkoniyati borligini eslatish joiz ko'rinadi. Keyingi paytlarda ayrim darsliklarda xronologik jadvallarning paydo bo'layotganini eslatish joiz.

Darsliklarning ilmiy apparatiga savol va topshiriqlar, lug'at va izohlar ham kiradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5–9-sinflaridagi Adabiyot darsliklarida savol va topshiriqlarning soni ham, mazmuni ham rang-barang. Ular bir-biridan farq qiladi. Bu esa mualliflarning yondashuvlariga, adabiy materialning xarakteriga ham bog'liq. Bularning barchasi o'quvchilarning mustaqil ijodiy ishlarni amalga oshirishlarida yaqindan yordam beradi.

Darslik materiallari bilan tanishish asosida ularni quyidagi turkumlarga ajratish mumkin bo'ladi:

1. O'quv materialini qayta esga olishga undaydigan – reproduktiv xarakterdagi savollar.

2. Ayrim ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan savollar. Bunga bevosita badiiy matn ustida ishlash, o'lkashunoslik materiallarini izlash, topish va undan foydalanish, ayrim jadvallarni tuzish, axborot va referatlar tuzishni kiritish mumkin.

3. Bilim va ko'nikmalarni amaliyotga tatbiq etishni talab qiladigan savollar. Bular sirasiga asardagi muayyan adabiy-nazariy tushunchaning izohini ko'rsatish, qo'yilgan adabiy asar haqida shaxsiy nuqtayi nazarini bildirish, ijodiy ishlarni amalga oshirish mansub bo'ladi.

4. O'quvchidan muayyan voqea-hodisalarga nisbatan emotsional munosabat bildirishni talab qiladigan savollar.

Umumiy tarzda aytiladigan bo'lsa, Adabiyot darsliklarida o'quvchilarimizning ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga yo'naltiriladigan savol va topshiriqlarni ko'paytirish zarurati bor.

8- MA'RUZA

ADABIYOT DARSLIKLARINING TA'LIM BOSQICHLARIGA KO'RA TURLARI

REJA:

1. Umumta'lim maktablari "Adabiyot" darsliklari.
2. Majmualar va o'qituvchi kitoblari.

Savol va topshiriqlar:

1. Maktabning 5-, 6-sinf Adabiyot darsliklaridagi materiallar qay darajada o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladi?
2. Qaysi asarlarni mos emas deb hisoblaysiz, nima uchun, uning o'rniga qaysi adibning asarini tavsiya qilasiz? Misollar asosida izohlab bering.
3. Adabiyot darsliklari uchun yaratilgan metodik qo'llanmalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli qanday? Misollar asosida izohlab bering.
4. Adabiyot darsliklari uchun yaratilgan o'quv qo'llanmalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli qanday? Misollar asosida izohlab bering.

Glossariy

Ko'nikma – fanlarni o'zlashtirish natijasida talabning hosil bo'lgan bilimlarni namoyish qilish qobiliyati, iqtidori.

Ta'limi tizimi – ta'lim jarayonidagi uzviylik, uzluksizlik, ilmiylik va amaliylik. **Malaka** – fanni, ishni, kasbni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba, mahorat.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya – tarbiyaning shaxs hissiyotiga, ruhiy dunyosini ta'minlashga qaratilgan tarbiya.

Prinsip (tamoyil) – u yoki bu fan amal qiladigan talab, mezonlar jami.

Ta'lim jarayoni – o'qitish va o'qish jarayoni.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari davlat ta'lim standarti va dasturi, Toshkent, 2017.

2. To‘xliyev B va boshqalar. Adabiyot, o‘rta ta‘lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi o‘quvchilari uchun darslik. Toshkent, 2017.

3. To‘xliyev B va boshqalar. Adabiyot, o‘rta ta‘lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi o‘quvchilari uchun darslik. Toshkent, 2018.

4. To‘xliyev B. Adabiyot, ALning 1-bosqich o‘quvchilari uchun darslik. Toshkent, 2003.

Ma‘lumki, adabiyot mustaqil fan sifatida boshlang‘ich ta‘lim tugaganidan so‘ng V sinfdan o‘tila boshlaydi. Albatta, bu davrda o‘quvchi adabiyot va ifodali o‘qish malakasining dastlabki bosqichini egallagan, so‘z san‘ati haqidagi dastlabki tasavvurga ega bo‘lgan bo‘ladi. Bola maktabgacha bo‘lgan yoshdayoq so‘z san‘ati ichida bo‘ladi. Maktabgacha ta‘lim bola shaxsini sog‘lom va yetuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Bu ta‘lim olti - yetti yoshgacha oilada, bolalar bog‘chasida va mulk shaklidan qat‘i nazar boshqa ta‘lim muassasalarida olib boriladi. Xuddi shu davrda u asosan tinglovchi, ba‘zan o‘quvchi shaklida dastlabki odimlarini tashlaydi. Demak, o‘quvchi V sinfga kelganida o‘qish, yozish, kitobxonlik madaniyatiga oid dastlabki tayyorgarlik bilan keladi. Ular badiiy asar bilan tanishishning ibtidoiy ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi. Jumladan, IV sinf o‘quvchilari matnni ifodali o‘qiy olishlari, harakatlanuvchi shaxslar haqida hikoya qilib berish uchun material to‘plash, ularning xatti-harakatlarini baholash, ularga nisbatan o‘z munosabatini ifodalay olish, adabiy qahramon haqida ixcham hikoya tuzish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishi lozim. V sinf o‘quvchisi hali badiiy asarning barcha xususiyatlarini to‘la o‘zlashtirishga tayyor bo‘lmaydi. Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq xalq og‘zaki ijodiga tegishli poetik janrlar: tezaytish, ertak, maqol, topishmoqlardan foydalaniladi. Mavzu doirasiga ko‘ra esa ularda mehnat, baxt, Vatan, oila, yil fasllari, atrofimizdagi olam, inson, inson ma‘naviyatidagi yaxshi va yomon xususiyatlar ilmiy-ommabop maqolalar tarzida yoritilgan. Demak, boshlang‘ich sinflarda bolalarning badiiy estetik didi hamda kitobxonlik madaniyatining shakllanishi uchun imkon qilingan. Endi V sinfdan boshlab ularning o‘qish va nutq ko‘nikmalariga tayanib turib, asarni badiiy his etish, estetik his-tuyg‘ularini o‘stirishga alohida e‘tibor berish zaruriyati ham e‘tiborda turishi lozim.

V sinf dasturidayoq turli janrlardagi asarlar bilan tanishish taqozo etiladi. Ular orasida qo‘shiq, maqol, topishmoq, afsona, ertak, latifa, doston, hikoya, ruboiy, masal, qissa, roman kabi xilma-xil janrlar mavjud. Bugina emas, dasturda turli adabiy tushunchalar hamda yozuvchi va shoirlar haqida, ularning asarlari haqida ham ma‘lumot berish ko‘zda tutilgan. Ammo tarixiy-adabiy izchillik tom ma‘nosi bilan IV–VII sinf adabiyot dasturlari talablari sirasiga kirmaydi, zero o‘quvchilarning yosh xususiyatlari ham bunga imkon bermaydi. Bu vazifalar VIII–IX sinflarda amalga oshiriladi.

Umumta‘lim maktablarida “Adabiyot” darslik-majmua, “Adabiyot” darsligi va “Adabiyot” majmuasidan foydalaniladi. Keyingi yillarda darsliklar uchun “O‘qituvchi kitobi” metodik qo‘llanmalari ham yaratildi. Bu qo‘llanmalar ona tili va adabiyot o‘qituvchilari uchun metodik yordam vazifasini o‘taydi.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” hamda “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunga muvofiq ta’lim bosqichlarida yangi tizimga o’tildi. Jumladan, umumta’lim maktablaridan so’ng ikki yillik akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, kasb-hunar maktablari, texnikumlarda ta’lim majburiy-ixtiyoriy tarzda davom ettiriladi. Bu esa yoshlarning fan asoslarini jiddiy va puxta egallashlari uchun muhim omildir. Ayniqsa, akademik litseylar bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da bu borada shunday deyiladi: “Akademik litsey davlat ta’lim standartlariga muvofiq o’rta maxsus ta’lim beradi. O’quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo’naltirilgan ta’lim olishini ta’minlaydi”. O’rta ta’lim muassasalarining 10-, 11-sinfi va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o’quvchilari uchun yaratilgan “Adabiyot” darslik-majmuasida ta’lim bosqichlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikka alohida ahamiyat berilgan. Darsliklarda mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining hayoti va ijodi haqida ma’lumot, asarlaridan parchalar; zamonaviy adabiyot hamda jahon adabiyoti namunalari berilgan. Asosiy e’tibor esa ularning tahlil va talqinlariga qaratilgan. Akademik litseylarda Adabiyot o’quv predmeti sifatida ikkala bosqichda ham o’rganiladi. Bu yerda adabiyot tizimli kurs sifatida taqdim etilgan. Umumiy o’rta ta’limning 9-sinfini bitirib kelgan o’quvchilarda muayyan tajribalarning, ko’nikma va malakalarning bo’lishi tabiiy. Shunga ko’ra bu bosqichda ayrim nazariy ma’lumotlarni berish, umumlashtiruvchi xarakterdagi materiallarni tavsiya etish ham mumkin bo’ladi. Darslik-majmualar aynan mana shu tipdagi materiallar bilan boshlanadi. Ushbu yangi avlod darslik-majmualar va uch bosqichli ALning 1-bosqichi uchun yaratilgan “Adabiyot” darsligini qiyoslaydigan bo’lsak, darslik-majmualarda tahlil va talqindan tashqari asarning to’liq matni yoki asardan parchalarning berilishi maqsadga muvofiqdir. Barcha adabiyot darsliklari kabi AL1-bosqich o’quvchilari uchun nashr etilgan “Adabiyot” darsligi (muallif – B. To’xliyev, Toshkent, 2003) ham quyidagi kirish mavzusi bilan boshlangan:

Adabiyot – so‘z san’ati.

Adabiyot so‘z san’atidir. U inson qalbi va ruhidagi nozik tovlanish va ohanglarni ilg’ashga, ularni so‘z vositasida aks ettirishga intiladi. Eng oliy daraja, yuksak pog’onalarga chiqa oladigan badiiy adabiyot namunalari insoniyatni to’lqinlantiradigan, hayajonga soladigan o’y-fikrlar, kechinmalar, orzu-umidlarni ifodalaydi. Dunyoda insonlar bir-birlariga o’xshamaganlariday, ularning qalb kechinmalari ham takrorlanmasdir. O’zbek adabiyoti tarixi inson ruhiy holatlarini mahorat bilan aks ettirgan durdonalarga boy. Ular hozirgi avlod ruhiyatida, qalbida ham hayajon uyg’ota oladi, ularning ma’naviy boyishlariga tegishli hissa qo’sha oladi. Muhimi, ular faqat ma’rifiy bilimimizni oshirish bilan cheklanmay badiiy didimiz takomiliga, ma’naviy kamolotga xizmat qiladi.

Adabiyot – so‘z san’ati. Ammo san’at turlari nihoyatda ko‘p va xilma-xildir. Tasviriy san’at, haykaltaroshlik, me’morchilik, teatr, kino, musiqa, raqs va badiiy adabiyot san’atning turlarini tashkil qiladi. Ularning barchasida yuksak badiiy ta’sirchan obrazlar yaratish ko‘zda tutilgan. Ammo ular ana shu yagona maqsadga turli-tuman yo‘llar bilan erishadi. Masalan, raqs harakatlar, tana a’zolarining ifoda

imkoniyatlariga tayanadi. Musiqa tovushlar uyg'unligiga, tovushlarning hissiy ifodasiga bog'liq. Tasviriy san'at uchun ranglarning o'zaro mutanosibliigi alohida ahamiyat kasb etadi. Rassomga bo'yoq va mo'yqalam yordam beradi. Haykaltarosh esa xom material(tosh, ganch, yog'och, metall)dagi ortiqcha o'rinlarni yo'nish hisobiga go'zallik yaratadi. Adabiyot esa bu san'atlardan so'z va ruhning beqiyos imkoniyatlari bilan farqlanadi.

So'zlar badiiy matnning yuzaga kelishiga omil bo'ladi, ammo har qanday matn va so'zlar badiiy adabiyotga daxldor bo'lavermaydi. Buning uchun so'z muayyan badiiy estetik vazifani bajarishi lozim bo'ladi. Shunga ko'ra ham badiiy adabiyot voqea-hodisalarni yoki insoniy kechinmalar, his-tuyg'ularni bayon qilmaydi, balki ularni tasvirlaydi.

Tasvir so'zga tayanadi. So'z sehr, mo'jiza bilan o'ziga mahliyo qiladi, rom qilib oladi. Shuning uchun go'dak allaga, kichik yoshdagi bola ertakka, kattalar badiiy ijodning turli ko'rinishlariga nihoyatda qiziqib qaraydi, ularning olamiga kirib qolgach, o'zini ham shu olamga mansub hisoblaydi.

Adabiyotning ta'sir kuchi nimada? U nimalarga bog'liq? Buning uchun yirik so'z san'atkorlari yaratgan ko'plab durdona asarlarning xalq orasida alohida hurmat va e'tibor qozonganligini eslash joiz.

Yusuf Xos Hojib XI asrning 1069–70-yillarda "Qutadg'u bilig" dostonini yozib tugatadi va uni Qoraxoniylar hukmdorlaridan Tabg'ach Bug'ro Qoraxon Abo Ali Hasan binni Arslonxonga taqdim etadi. Shu kuniyoq hukmdor adibga mamlakatdagi eng yuqori mansablardan biri – xos hojiblikni beradi. Xos Hojib "eshik og'asi" demakdir. Hozirgi tilimizda, u "ish boshqaruvchi"ga to'g'ri keladi.

Yana bir misol. Alisher Navoiy "Xamsa" dostonini tugatgach, uni Husayn Boyqaroga sovg'a sifatida topshiradi. Husayn Boyqaro butun a'yonlari oldida Navoiyni o'zining "pir"i deb e'lon qiladi va Navoiyni otga mindirib, o'zi xalq oldida uning oldiga tushib, jilovdorlik qiladi. Bu mamlakat podshosining buyuk iste'dod egasiga, so'z san'atkoriga nisbatan hurmat va e'tirofi ramzi edi.

O'zbek xalqining ijodkorlariga nisbatan alohida hurmat va ehtiromi ham yaxshi ma'lumdir. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ot it-turk" asarida "Ardam bashi – til" ("Barcha fazilatlarining boshi tildir") degan maqol uchraydi. Demak, til va badiiy so'zning qudratiga qadim zamonlardayoq ajdodlarimiz alohida e'tibor berishgan.

Adabiyot – jamiyat hayotining ko'zgusi

Adabiyot xalq, jamiyat hayotining, o'ziga xos ifodasi hamdir. U jamiyat tarixidagi jiddiy o'zgarishlarni xilma-xil obrazlar vositasida turli badiiy shakllarda aks ettiradi. Shunga ko'ra, eramizning VIII asrlarigacha yaratilgan asarlarda qadimgi ajdodlarimizning, urf-odat, e'tiqodlari ifodalangan bo'lsa, keyingi davrlarda islom ta'limoti bilan hamohanglik kuchayganligini kuzatish mumkin. Xususan, tasavvufning adabiyotdagi ko'rinishi jamiyat hayotidagi keskin o'zgarishlar bilan aloqador holda rivojlandi.

Ajdodlarimizning chet el bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashlari tarixiy manbalardan yaxshi ma'lum. Ayni ana shu jarayon "To'maris" va "Shiroq" afsonalarida juda yorqin aks etgan.

Turkiy xalqlarning tabg'achlarga qarshi kurashi esa O'rxun-Enasoy obidalarida juda ta'sirli ifodasini topgan.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ot it-turk" asarida qadimgi ajdodlarning turli-tuman mashg'ulotlari, urf-odatlar, yashash tarzlari, e'tiqod va qiziqishlarining ham ifodasini ko'rish qiyin emas.

Xalqimiz qadimdan farzandlarining sog'lom, aqlli, dono, mehnatsevar, xalqparvar bo'lishini orzu qilishadi, shunga intilishadi. Qadimgi qo'shiqlar, maqol, afsona, dostonlarda, qasida, hatto marsiyalarda ham ana shu holatlar o'z ifodasini topgan. Bu jihatdan Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Sayfi Saroyi, Xorazmiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy va boshqa adiblarning nomlarini ko'rsatish mumkin.

O'zbek adabiyoti o'zbek xalqining o'zi singari juda boy, qadimiy tarixga ega. Uning o'ziga xos shakllanish va taraqqiyot yo'li, rivojlanish qonuniyatlari bor. Bularni his etish, anglash va umumlashtirish uchun uning tarixini puxta o'rganish zarur. Adabiyot tarixi so'z san'atining rivojlanish jarayonlari, mumtoz namoyandalari haqida ma'lumot beradi. Bu fan tufayli qadimda yashab ijod etgan buyuk adiblar yaratgan nodir asarlar, badiiy tafakkurdagi rivojlanish va yangiliklar haqida tasavvurlar hosil bo'ladi.

O'zbeklar qadimgi turkiy xalqlarning ko'psonli avlodlaridan biridir. Boshqacharoq aytadigan bo'lsak, qadimgi ajdodlarimiz turkiylar deb nomlangan. Shunga ko'ra, eng qadimgi davrlardan boshlab XI–XII asrlargacha bo'lgan davr oralig'ida yaratilgan adabiyot fanda qadimgi turkiy adabiyot nomi bilan yuritiladi.

Qadimgi ajdodlarimiz Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm, Parfiya, Marg'iyona, Choch, Parkana (Farg'ona) va boshqa joylarda yashaganlar. Yunon va Eron manbalarining ma'lumotlariga ko'ra, bu yerlarda yashaganlarni so'g'diyalar, xorazmiylar, parfiyaliklar, marg'iyonaliklar, chochliklar, massagetlar, sak (shak) va parkanlar deb atashgan.

Oltoy atrofida, hozirgi Sibir hududlari ham turkiylar yashagan asosiy manzilgohlar bo'lgan. Manbalarda xunlar deb nom olgan xalqlar ham turkiylarning qadim ajdodlaridir.

Ajdodlarimiz turli vaqtlarda otashparastlik, masohiylik (xristianlik), buddaviylik, manixeylik (moniylik) va islom diniga e'tiqod qilganlar. Ular san'at, ayniqsa, badiiy ijodning olamshumul namunalarini yaratishgan. Ma'lumki, adabiyotning asosi, bosh, o'zak tomiri xalq og'zaki ijodidan boshlanadi. "To'maris", "Shiroq" singari rivoyatlar eramizdan oldingi davrlarda yashagan turkiy xalqlar tomonidan yaratilgan og'zaki ijod durdonalaridir. Eramizning V–VIII asrlarida paydo bo'lgan og'zaki ijodning boshqa namunalari: ertak, qo'shiq, marsiya, rivoyat, afsona, maqollar Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ot it-turk" (1072-yil) asari orqali yetib kelgan va nodir namunalar sifatida hozir ham ardoqlidir. Ular orqali ko'plab adabiy janrlarning paydo bo'lishi, takomilini ham kuzatish mumkin.

Turkiy yozma adabiyotning bizgacha yetib kelgan ilk namunalari O'rxun-Enasoy bitiklari bilan bog'liq. Bu yodgorliklar eramizning VI–VIII asrlarida yaratilgan. Ular ilk tarixiy-badiiy asarlar sifatida qimmatli. Keyingi asrlarga kelib adabiyotimiz boy tajriba to'pladi. Bu davrda turkiy tilda yaratilgan ilk yirik yozma

doston –Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yo‘llovchi bilim”) (1069–1070-yil) asari yuzaga keldi. Yusuf Xos Hojib boshlab bergan dostonchilik an‘anasi keyinchalik Ahmad Yugnakiy, Sayfi Saroyi, Qutb, Haydar Xorazmiy, Navoiy kabi shoirlar, adiblar ijodida davom ettirildi. To‘rtlik, ruboiy, tuyuq, murabba, g‘azal, qasida, masnaviy, noma kabi janrlarning o‘zbek adabiyotidagi tarixi ham ancha qadimgi davrlarda shakllangan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Atoiy, Gadoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi shoirlarimiz bu janrlarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shishgan.

O‘zbek nasrining tarixi ham qadimgi davrlardan boshlanadi. “Shiroq”, “To‘maris” kabi rivoyatlarning asl matni saqlanib qolmagan. Ular yunon tarixchilarining asarlari orqali bizgacha yetib kelgan.

O‘rxun-Enasoy obidalarida ham nasr izlari mavjud. Shuningdek, “Oltun yoruq” singari tarjima asarlari ham nasrda bitilgan. Shubhasiz, bu sohada Nosiriddin Rabg‘uziyning (XIII–XIV asrlar) alohida o‘rni bor. U “Qissas ul-anbiyo” (“Payg‘ambarlar tarixi”) asari bilan o‘zbek nasrini o‘z davrida yuqori cho‘qqiga olib chiqqan, deyish mumkin.

Adabiyot va boshqa fanlar

Adabiyot ham olam hodisalari haqida bilim va ma‘lumot beradi. Bu jihatdan u fanga, fanning turli tarmoqlari: falsafa, tabiatshunoslik, kimyo, fizika, tarix va boshqalarga o‘xshaydi. Ammo ular hayot hodisalarini aks ettirish usuliga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Zero, fan ilmiy umumlashmalarga tayansa, adabiyot badiiy obrazlarga suyanadi. Fan – jamiyatning muayyan qismi shug‘ullanadigan soha. Masalan, kimyo fani bilan hamma shug‘ullanmaydi, buning uchun muayyan qiziqish, malaka va tajriba, jiddiy ilmiy tayyorgarlik kerak. Fizika, matematika, botanika, tabiatshunoslik haqida ham shunday deyish mumkin. Badiiy adabiyot esa kishilarning yoshi va jinsi, kasbi va lavozimiga bog‘liq emas. Uni hamma o‘qishi mumkin va unga har bir inson qiziqadi. Boshqa yurt va mamlakatlarda yaratilgan badiiy asarlar ham sevib o‘qilishi mumkin. Qadimgi yunon adabiyoti (“Iliada”, “Odessey” va boshqalar), O‘rxun-Enasoy obidalar, Firdavsiyning “Shohnoma” si, Navoiy “Xamsa”si jahon xalqlari uchun go‘zal ma‘naviy mulkdir. Demak, adabiyot ko‘pchilik uchun, xalq uchun xizmat qiladi. Adabiyotning ommaviyligi uning asosiy xususiyatlaridan biridir.

Adabiyotning og‘zaki turi ko‘pchilik tomonidan, xalq tomonidan yaratiladi. Yozma adabiyot ma‘lum shaxslar, alohida qobiliyat va iste‘dod egalari tomonidan yaratiladi. Ammo asar bitilganidan keyin u xalq mulkiga aylanadi. Shuning uchun ham ayrim adiblar nomi xalq nomi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Masalan, fors-tojik adabiyoti deganda Ro‘dakiy, Firdavsiy, Hofiz, Sa‘diy, Jomiylar; qozoq adabiyoti deganda Abay, Muxtor Avezov; qirg‘iz adabiyoti deganda Chingiz Aytmatovlar esga olinadi. Yoki Navoiy, Bobur, Ogahiy, Mashrab, Muqimiy deganda jahon ahli o‘zbek xalqini eslaydi. Biz yuqorida badiiy adabiyot ham olam hodisalarini anglashga yordam berishini aytib o‘tgan edik. Ammo bu uning yagona asosiy xususiyati emas. Adabiyot xalq, jamiyat hayotida nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Adabiyotni hayot oynasi deyish mumkin. Unda jamiyat hayotining eng muhim qirralari aks etadi. Jumladan, O‘rxun-Enasoy obidalarida qadim ajdodlarimizning mustaqillik, erk, ozodlik yo‘lidagi shijoatli kurashlari ifodalangan

bo'lsa, "Shiroq", "To'maris" kabi afsonalarda qadimgi ajdodlarning yovuz bosqinchilarga qarshi mardonavar kurashi hamda ona yurt himoyasi yo'lidagi jangovar qahramonliklari ifodalangan. Bular tarix haqiqatiga ham mosdir. Yoki mo'g'ul istilochilariga qarshi kurash bir qator asarlarda o'z badiiy ifodasini topgan. Shulardan biri sifatida "Guldursun" afsonasini eslatish mumkin. Demak, adabiyot tarix bilan yonma-yon yashaydi. Ammo ularning tasvir obyektlari ham, vositalari ham boshqa-boshqadir. Tarix kishilik jamiyatining taraqqiyot bosqichlarini o'rganuvchi fandir. Badiiy adabiyot esa turli davrlardagi xalq hayotini, inson ruhiyatining o'ziga xos qirralarini kashf etuvchi san'atdir.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ot it-turk" asarida qadimgi hayot, ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik jarayonlari bilan bog'lanib ketadigan lavhalar ko'p uchraydi. Badiiy asarlar inson kechinmalari bilan bog'liq. Ularda insoniy huzur va alam, shodlik va qayg'u, baxt va kulfat, iftixor va afsus, kuyinchaklik va loqaydlik tasvir etilgan. Shuning uchun ham insoniyat adabiyotga befarq, loqayd qaray olmaydi. Undan o'z ko'ngil mulkini – ma'naviyatini boyitish uchun foydalanadi. Yosh avlod vakillarining muayyan asar qahramonlariga taqlid qilishlari bejiz emas.

Adabiyot hayotning in'ikosi sifatida har qanday hodisani aks ettirishi mumkin. Badiiy asarlarda urush va tinchlik, tog' va daryolar, shahar va qishloq, inson va hayvonot dunyosi, o'simliklar olami, hatto sukunat ham qalamga olinaveradi. Ammo bularning barchasi inson qalbi, uning ruhiyati, ma'naviyati bilan bog'liq bo'ladi. Demak, adabiyotning markazida har doim inson turadi. Ammo bu har bir asarda inson obrazining qatnashuvini shart qilib qo'ymaydi. Masalan, gul, bahor, qush, tosh, ot, it tasviriga bag'ishlangan asarlar bo'lishi mumkin (bunday asarlar ko'p). Biroq, bu asarlarda ham insonning borliqqa bo'lgan munosabati aks etgan. Aslida bular insonning go'zallikka bo'lgan intilishi bilan bog'liq. Shu ma'noda adabiyotni estetik tarbiya vositasi ham deyishadi. Zero, u inson qalbining go'zallikdan zavq va bahra olishiga yana bir imkon beradi. Qabohat, razolat, yovuzlik tasvirida esa insonning ularga nisbatan nafrati ifodalangan bo'ladi. Bunda adabiyotga badiiy tasvir – obrazlilik yordam beradi.

Bizning bu darslikdagi materialni berishimizdan maqsad sobiq darslik, majmua va qo'llanmalardagi o'quv materiallari, adabiy tahlil va talqin aks etgan maqolalar hamda savol-topshiriqlardan kerakli o'rinlarda qo'shimcha material sifatida foydalanish mumkin (albatta, zarur o'rinlarni tahrir qilish orqali).

9-MA'RUZA

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDAGI "ADABIYOT" DARSLIKLARINING XUSUSIYATLARI

REJA:

1. Darsliklarni yaratish tarixi.
2. Darsliklarni yaratishdagi islohotlar.
3. Darsliklarning yangi avlodini yaratishdagi yutuqlar.

Savol va topshiriqlar:

1. 5–9-sinflar uchun yaratilgan darsliklar bilan yaqindan tanishing. Ularning dastur bilan uyg'unlik darajasiga baho bering.

2. 6-sinf darsligida alohida ijodkorlarning hayoti va ijodlari qanday yoritilganligiga e'tibor bering. Ulardagi materiallarni mantiqiy qismlarga ajrating. Hamma ijodkorlar uchun umumiy bo'lgan o'rinlarni, alohida ijodkorlar uchungina qo'llangan usullarni ajrating.

3. Badiiy matnning taqdim etilish shakliga e'tibor bering. 7-sinf misolida matnlarga beriladigan lug'at va izohlar tizimini o'rganib chiqing.

4. 8-sinf darsligidan nazariy materiallarning berilishini kuzating. Ularning o'quvchilar yoshiga hamda adabiy tayyorgarligiga mutanosibliigi haqidagi o'z fikringizni asoslang.

5. 9-sinf darsligidagi savol va topshiriqlar tizimini o'rganib chiqing. Ularda o'quvchini bevosita ijodiy ishlarga undaydiganlarining salmog'ini aniqlang. Bunday topshiriqlarni ko'paytirish uchun nimalar qilinishi mumkinligi haqida o'z fikringizni bildiring.

6. Darsliklarda mualliflarning tili qaysi darajada aks etgan. Ularning har bir sinf o'quvchilari uchun munosiblik darajasiga baho bering.

GLOSSARIY

Ifodali o'qish – adabiyot o'qitishda keng qo'llaniladigan metodlardan biri.

Ijodiy o'qish – matn mazmunini o'zgartirmasdan o'qish usuli.

Yangi pedagogik texnologiya – o'qitishning yangi usullari tizimi. Texnologiya – yunoncha “techne” – san'at, mahorat; “logos” – fan, bo'lim. Texnologiya – bola shaxsiga ta'sir ko'rsatish san'ati. Demak, pedagogik texnologiya – ta'lim berishdagi mahorat yoki pedagogik san'at. Bu ibora amerikalik olim V. Shinner tomonidan XX asrning 50-yillarda birinchi marta “O'qitish texnologiyasi” deb qo'llangan. Pedagogik texnologiya – ta'lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy-uslubiy asoslangan eng faol vosita, usullar majmui, shuningdek, pedagogik faoliyat natijalarining yaxlitligi.

Kommunikatsiya (lotincha communicatio – communico dan – umumlashtiraman, bog'layman, muomala qilaman) – 1) Muomala, odamdan odamga ma'lumotni uzatish – bu odamlarning, ularning bilish-mehnat faoliyati jarayonidagi hamkorlik shakli, u asosan, til yordamida amalga oshiriladi (kamdan-kam boshqa belgi sistemalari yordamida). 2) Aloqa yo'li, bir joyning boshqa joy bilan bog'lanishi.

Konsepsiya (lot.) – qandaydir bir predmet, hodisa, fakt va hokazoga oid aqliy qurilma, qarashlar sistemasi.

Ko'nikma va malaka – fanlarni o'zlashtirish yuzasidan talabalar egallashi lozim bo'lgan bilimlarni o'zlashtirishga oid qobiliyat, iqtidor natijasi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya – tarbiyaning shaxs hissiyotiga, ruhiy dunyosini ta'minlashga qaratiladigan tarbiya.

Mezon – (yunoncha kriterion – mulohaza vositasi) – uning asosida bir nimani baholash, aniqlash yoki klassifikatsiyasi o'tkaziladigan xususiyat; baholash o'lchovi.

Motivatsiya – odam xatti-harakatlarini ifodalovchi faktorlar sistemasi, odam xatti-harakatlari, uning boshi, yo‘nalishi va aktivligini tushuntirib beruvchi ehtiyoj va talablari majmui.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmedov S. va boshqalar. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Toshkent, Sharq, 2015.
2. Ahmedov S. va boshqalar. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 6-sinf uchun darslik-majmua. Toshkent, Ma‘naviyat, 2013.
3. Yo‘ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Toshkent, 2017.
4. Olim S. va boshqalar. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinf uchun darslik-majmua. Toshkent, 2017.
5. Yo‘ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinf darsligi. Toshkent, 2019.
6. To‘xliyev B. va boshqalar. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua. Toshkent, 2017.
7. To‘xliyev B. va boshqalar. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua. Toshkent, 2018.

Xalqimizning durdona asarlari “Qobusnoma”, “Shohnoma”, “Yusuf va Zulayho” hamda Navoiy, Fuzuliy, Jomiy, Bobur, Mashrab devonlari uzoq asrlar davomida darslik vazifasini o‘tab kelganligi ayni haqiqatdir. Davrlar o‘tib, o‘qish va o‘qitish ishlari takomillashib borgan sari darsliklar yaratishga bo‘lgan ehtiyoj kuchaydi. Millatimizning ilg‘or vakillari tomonidan XX asrning boshlarida dastlabki darsliklar yaratilgani ma‘lum. Jumladan, Sayidrasul Aziziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Fitrat, Elbek kabi ma‘rifatparvarlar tomonidan ko‘plab darsliklar yaratilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, ushbu darsliklarda o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini, xalq og‘zaki ijodi namunalari, pand-nasihatlar, qissadan hissa hikoyalar berilgan edi. Bular o‘z vaqtida endigina shakllanayotgan o‘quvchi shaxsida milliy dunyoqarashni, zukkolikni, odob-axloqni, yomonlikka nafrat, ezgulikka rag‘batni, topqirlikni, mustaqil faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlariga ega bo‘lish xususiyatlarini qaror toptirishga xizmat qilgan. 30-yillardan keyin tartib berilgan darsliklarda yagona qotgan dasturlar asosida darslik yaratish talabiga amal qilindi.

Adabiyot darsligi adabiy ta‘limning maqsad, vazifa va mazmuni asosida yaratiladi, maktabda o‘rganiladigan barcha sinflar uchun yaratilgan darsliklar bir-biriga bog‘liq holda tuziladi va ta‘limning uzviyligiga amal qiladi. Darslik davlat ta‘lim standartida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilmog‘i lozim.

Darslikda beriladigan ta‘limiy topshiriqlar o‘quvchilarning yosh xususiyati va o‘zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda berilishi zarur. Topshiriqlar qiyin bo‘lsa, o‘quvchilarning qiziqishlari va intilishlariga xalal beradi. Agar haddan

tashqari oson bo'lsa, o'quvchilar tomonidan darslikni va o'qishni mensimaslik holatlari paydo bo'ladi. Darslik nafaqat bilim va ma'lumot beruvchi, balki o'quvchini o'ziga jalb etadigan, qiziqtiradigan noyob kitob bo'lishi shart. O'quvchi darslik orqali shu predmet, shu fan olamiga kirib boradi. Darslikning mukammalligi, o'quvchining didiga mosligi ta'lim samaradorligining muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahon andozalariga har jihatdan mos keladigan, milliy mustaqillik g'oyasini o'zida aks ettiradigan mukammal darsliklar yaratish dolzarb muammoga aylandi. Shu bois "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi" talablari asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yangi mazmundagi darslik va o'quv qo'llanmalari yaratilmoqda. Bu borada xalq ta'limi tizimida amaliy ishlar olib borilyapti. Osiyo Taraqqiyot Bankining kredit mablag'lari hisobidan "Umumta'lim maktablari uchun darslik va o'quv adabiyotlarining nashr qilish tizimini takomillashtirish" loyihasi doirasida yangi avlod darsliklarini tanlov asosida yaratish ishlari keng yo'lga qo'yildi. Bu borada ma'lum natijalarga erishildi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun adabiyot darsliklarining yangi avlodi maydonga keldi. 5-sinf uchun "Adabiyot" darsligi S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev muallifligida yaratildi. 6-sinf uchun "Adabiyot" darsligi (S. Axmedov va boshqalar), 7-sinf darsligi (Q. Yo'ldoshev va boshqalar), 8-sinf darsligi (S. Olim va boshqalar), 9-sinf darsligi (Q. Yo'ldoshev va boshqalar) tomonidan yaratilgan. Ushbu darsliklar bilan yonma-yon ular uchun yozilgan "O'qituvchi kitobi" metodik qo'llanmalari ham yaratilgani maqsadga muvofiq bo'ldi. Umumta'lim maktablarining 10-, 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun "Adabiyot" darslik-majmualari B. To'xliyev, B. Karimov, K. Usmonovalar tomonidan yaratilgan.

5-sinf uchun darslik o'quvchiga murojaat bilan boshlanadi. U dasturga muvofiq tarzda adabiyot haqidagi boshlang'ich umumiy tushunchalarni shakllantirish uchun mo'ljallangan ixcham nazariy lavha bilan boshlangan. Dastlab san'at turlari haqida ixchamgina axborot beriladi, so'ng ularga tayanib adabiyotning o'ziga xos san'at turi ekanligi aytiladi. Adabiyotning turlari ko'rsatiladi.

Darslik bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, adabiy tayyorgarlik darajalarini e'tiborga olgan holda bir necha ruknlarga bo'lingan. Ular quyidagicha nomlanadi:

1. Hikmat durdonalari.
2. Ertaklar olamida.
3. Bolalikning beg'ubor olami.
4. Mumtoz adabiyot bo'stoni.
5. Vatanni sevmoq iymondandir.

Har bir rukn ichida rang-barang janrlardagi asarlar jamlangan.

Masalan, "Hikmat durdonalari" ruknida maqollar, topishmoqlar, Imom Buxoriy to'plagan hadislar, Ezop masallari taqdim etilgan bo'lsa, "Ertaklar olamida" ruknida "Uch og'a-ini botirlar", "Susambil" singari o'zbek xalq ertaklari, Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" dostoni, Shayxzodaning "Iskandar

Zulqarnayn” asari, jahon adabiyotidan Jonatan Sviftning “Gullivrnining sayohatlari” romanidan parcha, Xans Kristian Andersenning “Bulbul” adabiy ertagi kiritilgan.

Ularning barchasi ixcham nazariy ma’lumotlar bilan ta’minlangan. Jumladan, xalq maqollari haqida bolalarning did va saviyalariga mos keladigan aniq, ixcham, lo’nda ma’lumotlar tavsiya etiladi. Unda maqollarning mazmun-mohiyati, mavzu qamrovi, nutqdagi ishtiroki tufayli hosil bo’ladigan shiradorlik to’g’risida ham to’xtab o’tilgan.

Darslikda maqollarning o’zidan ham namunalar beriladi. Ular vatan va vatanparvarlik (Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni), mardik va jasorat (El qo’risang, o’zarsan, qo’rimasang, to’zarsan), do’stlik (Aybsiz do’st axtargan do’stsiz qolar), hamjihatlik (Ko’pdan quyon qochib qutulmas), mehnat va mehnatsevarlik (Yotib yeyishga tog’ ham chidamaydi) singari mavzularga oiddir.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 5–9-sinflari uchun mo’ljallangan darsliklarda adib va yozuvchilarning hayoti va ijodi haqidagi ayrim muhim ma’lumotlar ham beriladi. Masalan, 5-sinf darsligida Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Mirkarim Osim haqida ikki sahifa hajmida ma’lumot beriladi. Ularda ijodkorlarning tug’ilgan vaqti va joyi, o’qish yillari, qiziqishlari, asosiy asarlari haqida ixcham ma’lumotlar jamlangan.

Darslikdagi har bir mavzu tegishli savol va topshiriqlar bilan ta’minlangan. Ular mavzuning xarakteri, materialning hajmi, ko’zda tutilgan maqsad va vazifalar bilan aloqador holda tuzilgan. Maqollar va Topishmoqlar mavzusi uchun 7 ta, Sa’diy Sheroziy uchun 7 ta, Andersenning “Bulbul”i uchun 11 ta, Dumbadze uchun 8 ta savol va topshiriqlar tuzilgan. Demak, savol va topshiriqlar adabiy materialning hajmi, xarakteri va undan ko’zda tutilgan maqsad bilan bog’liq holda tuziladi.

Ularning mazmuni ham rang-barang. Ayrim savollar asar yoki muallif haqidagi yangi ma’lumotlarni bilishga qaratilgan (Andersengacha va uning davrida qaysi ertaknavislar yashagan?). Ayrim savollarda boshqa o’quv predmetlari, san’at turlari bilan aloqadorlik nazarga olingan (G’afur G’ulom asarlari asosida yaratilgan qanday film yoki spektaklni bilasiz?).

O’qituvchi ularga ijodiy tarzda yondashishi mumkin. Tajribali o’qituvchilar matn mazmunidan kelib chiqib, savol va topshiriqlarni o’zlari tuzishlari mumkin. Pedagogik amaliyot jarayonida bunday vazifani amaliyotchi o’qituvchi o’quvchilar bilan birgalikda amalga oshirganligining bir necha marotaba guvohi bo’lganmiz. Bunda o’quvchilarning faollik darajasi keskin ortadi. Ularning matn mazmunini o’zlashtirishlari uchun yanada qulay sharoit yaratiladi, eng muhimi o’qituvchi va o’quvchi hamkorligidagi jonli bir holat maydonga keladi.

Ba’zi savollar voqealarning izchilligi, mantiqiyligini (Ertakni rollarga bo’lib o’qing) kuzatishga undasa, yana ba’zilari ularni ijodiy fikrlashga da’vat etadi (Kattalardan eshitgan biror ertakni sinfdoshlaringizga aytib bering). Amaliy-ijodiy faoliyatni talab etadigan (“Bulbul” va “Qor malikasi” ertaklarini qiyoslab o’qing) savollar ham darslikda anchagina.

Ayni bir xiltdagi savol va topshiriqlar bir o’rinda juda muvaffaqiyatli bo’lib, boshqa bir o’rinda o’z vazifasini to’la bajarmasligi mumkin. Adibning tug’ilgan joyini aniqlashga oid savollarda bu hol ko’proq uchraydi. Vaholanki,

savollarni tuzayotganda “ha”, “yo‘q”, “shunday” deb javob berilishi mumkin bo‘lganlaridan tiyilish kerakligini tajribali pedagoglarimiz ko‘p ta’kidlashadi.

Ayni mana shu savolni 8-sinfda Lutfiyning hayoti va ijodini o‘rganish jarayonida berish esa boshqacha samara beradi. Hozirgacha Lutfiyni barcha manbalarda Hirotda tug‘ilgan va shu yerda vafot etgan degan ma’lumotlar e’tirof etilib kelar edi. Shayx Ahmad Xudoydod Taroziyning “Funun al-balag‘a” kitobida Lutfiyga “Shoshiy” nisbasi berilgan ekan. Professor A. Hayitmetov shu ma’lumotga tayanib turib, Lutfiyni Toshkentda tug‘ilgan deb ko‘rsatadi. O‘quvchilardan shu holatga oid javoblar olinadigan bo‘lsa, ularning faqat bilimlari oshibgina qolmasdan, ayni chog‘da vatanparvarlik tuyg‘ulariga ham ijobiy ta’sir qilishiga shubha bo‘lmaydi.

Topshiriqlarda ifodali o‘qish, rollarga bo‘lib o‘qish, matnni yod olish, matn mazmunini hikoya qilish, matn mazmunini qisqartirib hikoya qilish singari ko‘rinishlar mavjud. Ular o‘quvchilarning og‘zaki nutq malakalarining ortishiga omil bo‘ladi. Bevosita yozma nutq takomiliga yo‘naltirilgan topshiriqlar ham bor.

5-sinf darsligida adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganishga ham e’tibor qaratilgan. Adabiyot, maqol, topishmoq, ertak va uning turlari haqidagi ma’lumotlar shu siraga kiradi. Ayrim holatlarda muayyan adabiy janr haqidagi muxtasar ma’lumotlar berilgan. Jumladan, masallar haqida shunday ma’lumot mavjud. Ayni paytda she’r, ruboiylar haqida ham alohida nazariy ma’lumot berilgan.

5-sinf uchun Adabiyot darslari yangi fan hisoblanadi. Ular bu paytgacha “O‘qish kitobi” bilan shug‘ullanib kelishgan edi. 5-sinf dan boshlab ular tom ma’nodagi adabiyot darslarining ichida yashashadi. Xuddi shu jarayonning oson va mazmunli kechishi uchun ham darslik o‘ziga xos vazifalarni ado etadi.

“Har bir adabiyotchi shu narsani yaxshi biladiki, katta yoshdagi ko‘pgina kitobxonlar san’atni his qilishda, san’at bilan munosabatlarda bolalikdagi darajalarida qolishadi, ularni faqat “Kim?” va “Qanday?” degan savollar bezovta qiladi, xolos, bu savollar o‘smirning kitobxonligini belgilaydi – bu 10-13 yoshdagi o‘quvchining ma’naviy kamoloti uchun xosdir.

Adabiyotni uning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda o‘rganishning boshlanishi yetuk kitobxonni shakllantirish uchun muayyan zamin yaratish imkonini beradi. Hammadan burun bu bolalikning undagi “Nima?” va “Nima uchun?” degan savollariga javob berish uchun tayyorgarlikdir. Faqat bilim zahiralari, madaniyatli va ma’naviyatli, kitobxonlik ko‘nikmalari bilan boyigan kitobxonga katta yoshdagi insonlarning yetuk baho va mulohazalariga tengmateng yaqinlashgan holda hayotiy muhim muammolarni yechishga qobildirlar.

5-sinf darsligi bilan ishlashda o‘quvchilarning badiiy matn mohiyatini, sehrini, tarovatini, shular asosida esa o‘zbekcha so‘z nazokatini tushunishlari, his etishlari, anglab yetishlari uchun dastlabki qadamlar qo‘yiladi. Ammo har bir matnning o‘ziga xos tarzidagi yondahuvlarni taqozo etishini ham unutmazlik kerak.

Darslik mustaqil o‘qishga beriladigan asarlar bilan ta’minlanmay qolgan. Bu darslikning umumiy tuzilishidagi nuqsonlardan biridir.

Yangilangan 10-, 11-sinf “Adabiyot” dasturi va darsligi, avvalo o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishga yo‘naltirilgan. Ularni yaratishda

adabiyotshunoslik va metodika ilmining so‘nggi yutuqlaridan foydalanilgan. O‘rganishga berilgan asarlar tahlili orqali yoshlarda nozik qalb, teran hissiyot, yuksak ma‘naviyatni shakllantirish ko‘zda tutilgan.

Dastur va darsliklarda 10-, 11-sinf mustaqil hayot boshlash yoki oliy ta‘lim olish arafasidagi bosqich ekanligi hamda bu bosqichda kasbga yo‘naltirish ishlarining qat‘iy tusga kirishi hisobga olingan. Shuningdek, o‘rganish uchun tavsiya etilgan asarlarning to‘liq tahlili faqat o‘quvchilar faol ishtirok etgan taqdirdagina amalga oshishi mumkinligi, ta‘lim tizimining har qanday bo‘g‘inida bilim ham, o‘qituvchi ham, muassasa ham emas, balki bosh qadriyat o‘quvchi ekanligi nazarda tutilgan.

Dastur va darsliklarda o‘rganilishi ko‘zda tutilgan asarlar badiiy qimmat, tarbiyaviy ahamiyati hamda o‘quvchilarning yoshi, ruhiy imkoniyatlari, aqliy rivojlanish darajalariga mosligiga ko‘ra tanlangan, asar tahlilida bir xil fikrlash va bir qolipdagi mulohazalar yuritishdan voz kechilgan.

10-MA‘RUZA

TA‘LIMNING TURLI BOSQICHLARIDAGI “ADABIYOT” DARSLIKLARINING UZVIYLIGI VA UZLUKSIZLIGI

REJA:

1. Ta‘limning uzviyligi va uzluksizligi.
2. “Adabiyot” darsliklaridagi uzviylik va uzluksizlik.
3. Ta‘lim bosqichlari orasidagi uzviylik va uzluksizlik.

Savol va topshiriqlar:

1. Uzviylikni misollar asosida izohlab tushuntiring.
2. Ta‘limning uzluksizligi deganda nimani tushunasiz?
3. O‘quv fanlararo uzviylik nima?
4. Adabiyot darsliklarida ta‘lim bosqichlararo uzviylikka e‘tibor bering.

GLOSSARIY

Uzluksizlik – maktabgacha ta‘lim bilan boshlang‘ich ta‘lim, boshlang‘ich ta‘lim bilan umumiy o‘rta ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim bilan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi orasidagi ta‘lim mazmunida buzilish bo‘lmasligi, ya‘ni keyingi ta‘lim turi mazmuni oldingisini uzluksiz davom ettirishi tushuniladi.

Uzviylik – ikki xil ma‘noda qo‘llaniladi. Birinchidan, ta‘lim turlari o‘rtasidagi uzviylik. Bunda ta‘limning keyingi turi mazmuni avvalgisini faqat qisman takrorlab, mazmun jihatidan uzviy bog‘langan holda keyingi ta‘lim turlarida davom ettirishi kerak. Ikkinchidan, o‘quv fanlari orasida uzviylik. Buni fanlararo yoki predmetlararo bog‘lanish deyiladi. Uzviylik masalasi ilgari ham, hozir ham o‘qish, o‘rganishning asosiy sharti ekanligi hech kimga sir emas. Ta‘limning uzviyligi umumdidaktik tamoyil sanalgani uchun har qaysi fan, predmetni o‘qitishda uni chetlab o‘tish mumkin emas.

Faoliyat – atrofdagi voqelik bilan aktiv o‘zaro harakat, uning jarayonida odam obyektga maqsadli ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, o‘z ehtiyojlarini qondiradi. Inson faoliyatining asosiy turi mehnatdir. Mehnat bilan inson faoliyatining boshqa turlari bog‘liq (o‘yin, o‘qish va hokazo). Ular ham mehnat asosida ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida, aqliy mehnat, inson va jamiyatning alohida bir rivojlanish bosqichi sifatida kelib chiqadi.

Funksiya – (lotincha “function” – bajarish, amalga oshirish) – faoliyat, majburiyat, ish; qandaydir bir obyektning berilgan aloqalar sistemasidagi xossalari tashqi ifodasi (masalan, sezgi organlari funksiyasi).

Xulosa chiqarish – yangi xulosani bir nechta mulohazalardan olishdan iborat aqliy operatsiya.

Sharhli o‘qish – badiiy asar, undagi adabiy qahramonlar, tarixiy va to‘qima voqealar haqida atroflicha tushuncha berishga mo‘ljallangan usul.

O‘qitish – o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi bir maqsadga qaratilgan faoliyati, bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, uning ta’lim-tarbiyasi amalga oshiriladi. O‘qitish jarayonining asosiy tashkiliy qismlari – dars berish va o‘qish. Ularning birligi o‘z ichiga ta’limning asosiy didaktik funksiyasini qamrab oladi. **Yangi pedagogik texnologiya** – o‘qitishning yangi usullari tizimi. Texnologiya – yunoncha “techne” – “san’at, mahorat”, “logos” – “fan”, “ta’limot”. Texnologiya bola shaxsiga ta’sir ko‘rsatish san’ati. Demak, pedagogik texnologiya – ta’lim berishdagi mahorat yoki pedagogik san’at. Pedagogik texnologiya deganda ta’lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan, ilmiy-uslubiy asoslangan eng faol vosita, usullar majmuini tushunamiz, shuningdek, pedagogik faoliyat natijalarining yaxlitligi nazarda tutiladi. Yangi pedagogik texnologiyalar o‘quvchilar faolligini oshirishda muhim omil bo‘lib kelmoqda. Ularni nazariy tomondan puxta egallash, amaliyotda to‘g‘ri qo‘llay olish ta’lim samaradorligining rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Uzluksiz ta’lim jarayonini o‘quv-metodik majmualar bilan ta’minlash muammolari” respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.: O‘zPFITI, 2001.
2. Ahmedov S. va boshqalar. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. Toshkent, 2015.
3. Axmedov S. va boshqalar. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik-majmua. Toshkent, 2017.
4. Yo‘ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik-majmua. Toshkent, 2017.
5. Olim S. va boshqalar. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik-majmua. Toshkent, 2019.
6. Yo‘ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. Toshkent, 2019.
7. To‘xliyev B. va boshqalar. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik-majmua. Toshkent, 2017.

8. To‘xliyev B. va boshqalar. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik-majmua. Toshkent, 2018.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilingach, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida 1-Prezidentimiz Islom Karimov ta’lim-tarbiyaning uzluksizlik masalasiga ham to‘xtalib shunday degan edilar: “Barcha amaldagi o‘zgarishlar va tadbirlar asosan yuzaki bo‘lib, ta’lim-tarbiya va o‘quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog‘lash, ya’ni uzluksiz ta’lim tizimini tashkil qilish muammolarini yechib bergan emas”.

Ushbu dastur orqali uzluksiz ta’limga asos solindi. Milliy dastur asosida maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi turlarining har biri uchun davlat talablari va davlat ta’lim standartlari, ularga mos ravishda o‘quv dasturlari yaratilib, ta’lim jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Har bir ta’lim turi uchun ta’lim mazmunini tanlashda ta’limning uzluksizligi va uzviyligiga alohida e’tibor berilgan.

Ta’limning uzluksizligi deganda nimani tushunamiz, uzviylik deganda nimani ko‘zda tutamiz?

Uzluksizlik – bu maktabgacha ta’lim bilan boshlang‘ich ta’lim, boshlang‘ich ta’lim bilan umumiy o‘rta ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim bilan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi orasidagi ta’lim mazmunida uzilish bo‘lmasligi, ya’ni keyingi ta’lim turi mazmuni oldingisini uzluksiz davom ettirishi tushuniladi.

Ta’limda uzviylik termini ikki xil ma’noda qo‘llaniladi. Birinchidan, ta’lim turlari o‘rtasidagi uzviylik. Bunda ta’limning keyingi turi mazmuni avvalgisini faqat davom ettirishi, qisman takrorlab, mazmun jihatidan uzviy bog‘langan holda keyingi ta’lim turlarida davom ettirishi kerak.

Ikkinchidan, o‘quv fanlari orasidagi uzviylik. Buni fanlararo yoki predmetlararo bog‘lanish deyiladi.

Uzviylik masalasi ilgari ham, hozir ham o‘qish, o‘rganishning asosiy sharti ekanligi sir emas. Ta’limning uzviyligi umumdidaktik tamoyil sanalgani uchun har qaysi fan, predmetni o‘qitishda uni chetlab o‘tish mumkin emas. Adabiy ta’limda uzviylik mavzularni rejalashtirishda, sinflarga taqsimlashda, ketma-ketlikni ta’minlashda, yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Adabiyot” darsliklarini tahlil qilib chiqar ekanmiz, sinflarning o‘shishiga qarab, mavzularning ham murakkablashib borishini kuzatamiz. Masalan, Navoiyning 5-sinfda “Hayrat ul-abror” asaridan parcha “Sher bilan Durroj” o‘rganilsa, 10-sinfga kelib Navoiy lirikasi o‘rganiladi. Shuningdek, 5-sinfda Oybekning “Fanorchi ota” hikoyasi berilgan bo‘lsa, 9-sinfga kelib, uning “Navoiy” romani o‘rganiladi.

5–9-sinflarning davomi sifatida akademik litsey, kasb-hunar kollejlarning darsliklarini kuzatib ta’lim bosqichlararo uzviylik ta’minlanganini his qilish mumkin.

Buni birgina Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o‘rganish misolida quyidagicha tasavvur qilishimiz mumkin:

Sinf Asar Qisqacha mazmuni Soat

5 Alisher Navoiy. “Sher bilan Durroj” masali (“Hayrat ul-abror” dostonidan)

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. "Hayrat ul-abror" shoirning olam va odam haqidagi fikrlarini badiiy aks ettirgan asar sifatida.

"Sher bilan Durroj" inson ma'naviyatini yuksaltirish haqida bahs yurituvchi majoziy asar sifatida. Undagi Sher va Durroj obrazlarining tavsifi. Sher va Durroj misolida farzandga bo'lgan mehr-muhabbat, o'zaro sadoqat, yolg'onchilik singari xususiyatlarning tasvirlanishi. Ularga munosabatlarining ifodalanishi. Ushbu masalning ma'rifiy, tarbiyaviy, badiiy-estetik ahamiyati.

Masalning badiiy xususiyatlari (3 soat).

6 Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub" – hayotiy hikmatlar majmuasi sifatida. Hikmatli so'zlar. Navoiy hikmatli so'zlarining mazmun-mohiyati, umrboqiyliigi.

"Saxovat va himmat bobida", "Hilm zikrida", "Safarning foydalari to'g'risida" qismlaridagi ilm va hunar, yaxshilik, insoniylik, rostgo'ylik va yolg'onchilik, sabr va qanoat, mehr, vafo, insoniylik haqidagi hikmatlarning o'ziga xosliklari. Ularning xalq maqollariga yaqinligi, ulardan farqi. Bu hikmatlarning ma'naviy-axloqiy, ta'limiy, tarbiyaviy va badiiy ahamiyati. Hikmatlarda hayotiy hodisalarning qisqa, ixcham, lo'nda va ta'sirchan ifodalangani. Hikmatlarning qurilishi. Ulardagi badiiy tasvir vositalari (3 soat).

7 Alisher Navoiy. "Mehr va Suhayl" hikoyati.

Navoiy "Xamsa"si va Sharq adabiyotida xamsachilik. "Sab'ayi sayyor" Navoiy "Xamsa"sining tarkibiy qismi sifatida. "Mehr va Suhayl"ning syujeti va kompozitsion xususiyatlari. Mehr, Suhayl va Jobir obrazlarining tahlili va talqini. Qahramonlarning nomi va xatti-harakatlari orasidagi bog'lanishlar. Hikoyatda sadoqat, mardlik, tantilik kabi insoniy tuyg'ular ifodasi. Uning badiiy xususiyatlari.

Nazariy ma'lumot: Tashbih, tanosub, irsoli masal haqida tushuncha (4 soat).

8 Alisher Navoiy. Ruboiy, tuyuq, fardlar Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" devoni haqida qisqacha ma'lumot. Navoiy she'riyatining mavzu qamrovi va badiiyati. Kichik lirik asarlari tahlili. Ularning g'oyaviy-badiiy mazmuni va mohiyati, tuzilishi, tarkibi, tasvir xususiyatlari.

Navoiy lirikasidagi tasvirlarning favquloddaligi. Buning shoir mahorati bilan aloqadorligi. Navoiy va o'zbek adabiyotining keyingi taraqqiyoti (6 soat).

9 Alisher Navoiy. "Xamsa" asari

Navoiy ijodi – o'zbek mumtoz adabiyotining eng yuksak bosqichi sifatida.

"Xamsa"ning yaratilishi. Sharq adabiyotida xamsachilik. Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy "Xamsa"lari haqida ma'lumot. Xamsachilik – mahorat maydoni sifatida. Turkiy tilda "Xamsa" yozish badiiy kamolot va ijodiy jasorat namunasi bo'lganligi. "Xamsa"ning qurilishi.

«Xamsa»dagi boshqa dostonlar. «Farhod va SHirin» dostonining «Xamsa»da tutgan o'rni. Dostonning badiiy xususiyatlari. Farhod shoir idealining tajassumi sifatida. Komillik yo'lga kirgan inson manzillari tasviri. SHirin obrazi. Unda ayollarga xos eng yuksak ma'naviy fazilatlar talqini. Dostondagi boshqa obrazlar. Dostonda yaxshilik va yomonlik, razolat va adolat, butunlik va noqislik

oʻrtasidagi ziddiyatning jonli shaxslar timsollarida koʻrsatilishi. Dunyoni tasavvufiy idrok etish.

Nazariy maʼlumot: Adabiyotdagi komil inson obrazi haqida tushuncha (10 soat).

Oʻrta taʼlim muassasalarining 10-, 11-sinfi hamda oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarining oʻquvchilari uchun yaratilgan “Adabiyot” darsligida Alisher Navoiyning gʻazal, qitʼa va ruboiylari tahlili hamda Navoiy shaxsiyati haqidagi yozma manbalardan biri – Xondamirning “Makorim ul-axloq” asaridan; “Saddi Iskandariy” asaridan olingan parchalar berilganini kuzatishimiz mumkin.

Koʻrinib turibdiki, Alisher Navoiy hayoti va ijodini oʻrganish misolida umumiy oʻrta taʼlim maktablarida uzviylik va uzluksizlik muammolarining yechimi uchun yaxshi yoʻl izlangan. Bunda adib asarlarini sinflar kesimida oʻrganishda ularning oʻzaro aloqadorligiga, shu bilan birgalikda, takrorlarning oldini olishga alohida eʼtibor berilgan.

7-MAʼRUZA.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tasavvuringizdagi zamonaviy darslik tushunchasini izohlaydigan 5 (10, 15) ta xususiyatni yozing.

2. Adabiyot darsliklarining yangi avlodiga xos boʻlgan oʻzgarishlarni tushuntiring.

3. DTS, dastur, darslik terminlarining izohini yozing.

4. 5-sinf “Adabiyot” darsligi yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring:

4.1. Darslik mualliflari, nashriyoti, yilini yozing. Darslik qanday ruknlardan tarkib topgan?

4.2. Darslik (ortiqcha sarf-xarajat hamda ovoragarchilikni yuzaga keltirishiga qaramasdan) nima maqsadda 2 qismlilik qilib yaratilgan deb oʻylaysiz?

4.3. Darslikda oʻrganish uchun yana qaysi janrdagi folklor materiallarini tavsiya qilasiz? Asar nomi va janrini toʻliq yozing.

4.4. Darslikda nechta adibning hayoti va ijodi oʻrganiladi?

4.5. Darslikda oʻrganish uchun berilgan adiblarning hayoti va ijodi haqidagi maqolalarni berishda yana qanday shakllardan foydalanishni tavsiya qilasiz?

4.6. Darslikda nechta lirik asar oʻqish, oʻrganish va yodlash uchun berilgan? Ushbu asarlardan nechtasini yodlagansiz va ifodali ayta olasiz?

4.7. Oʻzingiz mustaqil oʻqigan oʻzbek, jahon adabiyoti namoyandalaridan qaysi shoir va uning asarini ushbu darslikning keyingi nashrlariga tavsiya qilasiz? Sababini izohlang.

4.8. Darslikda nechta epik asar oʻqish, oʻrganish va tahlil qilish uchun berilgan? Bu asarlarning toʻliq matni bilan tanishmisiz? Agar oʻqimagan boʻlsangiz, mutaxassis sifatida toʻliq oʻqishingizni tavsiya qilamiz, chunki (Unutmang!) asar tahlili uni oʻqishdan boshlanadi!

4.9. O'zingiz mustaqil o'qigan o'zbek, jahon adabiyoti namoyandalaridan qaysi nosir va uning asarini ushbu darslikning keyingi nashrlariga tavsiya qilasiz? Sababini izohlang.

4.10. Darslikda nechta dramatik asar o'qish, o'rganish va tahlil qilish uchun berilgan?

4.11. Agar 5-sinf o'quvchilaringizni teatr(kinoteatr)ga olib borish imkoniyati bo'lganda, Siz aynan qaysi asar(lar)ning sahnalashtirilishini va premyerasidan keyin birga tahlil qilishni istaysiz? Sababini ko'rsating (mavzu, yumor, hajm, shakl, syujet, kompozitsiya, asarning ma'lum va mashhurligi...).

4.12. O'zingiz mustaqil o'qigan o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalaridan qaysi dramaturg va uning asarini ushbu darslikning keyingi nashrlariga tavsiya qilasiz? Sababini izohlang.

4.13. Darslikda berilgan savol va topshiriqlarni kuzating. Kuzatishlaringiz asosida bitta adibning hayoti va ijodi haqidagi maqola hamda asarni o'rganish yuzasidan savol va topshiriq(10, 15, 20...)lar tizimini ishlab chiqing. Bu jarayonda Siz darslik muallifidan o'rganing, ammo savol va topshiriqlarni darslikdan aynan ko'chirmang.

4.14. Ma'lumki, har bir qilingan ishning yutuq va kamchiliklari bo'lishi tabiiy. Shunday ekan Siz 5- sinf Adabiyot darsligini yaratishda mualliflar qanday yutuqlarga erishgan va kamchiliklarga yo'l qo'ygan deb hisoblaysiz? Kamida 3 ta yutuq va 3 ta kamchilik ko'rsatishingiz kerak. Bu fikr-mulohazalaringiz bilan kelajakda yana ham sifatli, mazmunli, zamonaviy darsliklarning yaratilishiga o'z hissangizni qo'shasiz, balki muallifning o'zi bo'larsiz, deb umid qilamiz.

4.15. Adabiyot o'qitish metodikasida "Birgalikda o'qish" degan metod mavjud. Katta hajmli asarlarni darsdan keyin birgalikda o'qish va tahlil qilish ma'qulmi yoki har bir o'quvchi individual o'qib-o'zlashtirgani yaxshimi? Fikringizni asoslang.

4.16. Darslikda nechta o'zbek, nechta jahon adabiyoti namoyandalari hamda ularning asarlari o'rganish uchun taqdim etilgan?

4.17. Darslikdagi materialga qo'shimcha qanday adabiy-tanqidiy materialni mustaqil o'rganishga tavsiya qilgan bo'lar edingiz yo hali bu ishga ertaroq, vaqtli deb o'ylaysizmi?

4.18. Darslikdan tashqari material (sinf dan tashqari o'qish) sifatida qaysi asar(lar)ni o'quvchilaringizga, albatta, o'qitgan bo'lar edingiz?

4.19. 5-sinf Adabiyot darsligi uchun yaratilgan metodik qo'llanma bilan tanishib chiqing. O'qituvchining amaliy faoliyatida metodik va o'quv qo'llanmalarning ahamiyati qanday? Fikr-mulohazalaringizni yozma bayon qiling.

4.20. Amaldagi Adabiyot darsliklari haqida yozilgan bitta maqola(ijobiy yoki salbiy munosabat bildirilgan)ni o'qing va tahlil qiling. Maqola nomi, muallifi, nashr nomi, nashr qilingan sana hamda o'zingizga ma'qul o'rinni sitata sifatida yozib ko'rsating.

8-MA'RUZA

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Darslik-majmua va majmuaning ta'rifini yozing. Ularning umumiy va farqli tomonlarini misollar asosida tushuntiring.

2. O'quv qo'llanma va metodik qo'llanmaning ta'rifini yozing.

3. Bilim, ko'nikma va malaka terminlariga DTSda berilgan ta'rifni yozing va yod oling.

4. 6-sinf "Adabiyot" darsligi yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring:

4.1. Darslik mualliflari, nashriyoti, yilini yozing. Darslik qanday ruknlardan tarkib topgan?

4.2. Darslik (ortiqcha sarf-xarajat hamda ovoragarchilikni yuzaga keltirishiga qaramasdan) nima maqsadda 2 qismli qilib yaratilgan deb o'ylaysiz?

4.3. Darslikda nechta adibning hayoti va ijodi o'rganiladi?

4.4. Darslikda o'rganish uchun berilgan adiblarning hayoti va ijodi haqidagi maqolalarni berishda yana qanday shakl(lar)dan foydalanishni tavsiya qilasiz?

4.5. Darslikda o'rganish uchun yana qaysi janrdagi folklor materiallarini tavsiya qilasiz? Asar nomi va janrini to'liq yozing.

4.6. Darslikda nechta lirik asar o'qish, o'rganish va yodlash uchun berilgan? Ushbu asarlardan nechtasini yodlagansiz va ifodali ayta olasiz?

4.7. O'zingiz mustaqil o'qigan o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalaridan qaysi shoir va uning asarini ushbu darslikning keyingi nashrlariga tavsiya qilasiz? Sababini izohlang.

4.8. Darslikda nechta epik asar o'qish, o'rganish va tahlil qilish uchun berilgan? Bu asarlarning to'liq matni bilan tanishmisiz? Agar o'qimagan bo'lsangiz, mutaxassis sifatida to'liq o'qishingizni tavsiya qilamiz, chunki (Unutmang!) asar tahlili uni o'qishdan boshlanadi!

4.9. O'zingiz mustaqil o'qigan o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalaridan qaysi nosir va uning asarini ushbu darslikning keyingi nashrlariga tavsiya qilasiz? Sababini izohlang.

4.10. Darslikda nechta dramatik asar o'qish, o'rganish va tahlil qilish uchun berilgan?

4.11. Agar 6-sinf o'quvchilaringizni teatr(kinoteatr)ga olib borish imkoniyati bo'lganda, Siz aynan qaysi asar(lar)ning sahnalashtirilishini va premyerasidan keyin birga tahlil qilishni istaysiz? Sababini ko'rsating (mavzu, yumor, hajm, shakl, syujet, kompozitsiya, asarning ma'lum va mashhurligi...).

4.12. O'zingiz mustaqil o'qigan o'zbek va jahon adabiyoti namunalardan qaysi dramaturg va uning asarini ushbu darslikning keyingi nashrlariga tavsiya qilasiz? Sababini izohlang.

4.13. Darslikda berilgan savol va topshiriqlarni kuzating. Kuzatishlaringiz asosida bitta adibning hayoti va ijodi haqidagi maqola hamda asarni o'rganish yuzasidan savol va topshiriq (10, 15, 20...)lar tizimini ishlab chiqing. Bu jarayonda Siz darslik muallifidan o'rganing, ammo savol va topshiriqlarni darslikdan aynan ko'chirmang.

4.14. Ma'lumki, har bir qilingan ishning yutuq va kamchiliklari bo'lishi tabiiy. Shunday ekan Siz 6-sinf Adabiyot darsligini yaratishda mualliflar qanday yutuqlarga erishgan va kamchiliklarga yo'l qo'ygan deb hisoblaysiz? Kamida 3 ta yutuq va 3 ta kamchilik ko'rsatishingiz kerak. Bu fikr-mulohazalaringiz bilan kelajakda yana ham sifatli, mazmunli, zamonaviy darsliklarning yaratilishiga o'z hissangizni qo'shasiz, balki muallifning o'zi bo'larsiz, deb umid qilamiz.

4.15. Adabiyot o'qitish metodikasida "Ifodali o'qish" degan metod mavjud. Badiiy asarlarni darsda ifodali o'qish va tahlil qilish ma'qulmi yoki har bir o'quvchi individual o'qib-o'zlashtirgani yaxshimi? Katta hajmli asarlarning to'la matni bilan tanishtirish uchun qaysi metodni yoqlaysiz? Fikringizni asoslang.

4.16. Darslikda nechta o'zbek, nechta jahon adabiyoti namoyandalari hamda ularning asarlari o'rganish uchun taqdim etilgan?

4.17. Darslikdagi materialga qo'shimcha qanday adabiy-tanqidiy materialni mustaqil o'rganishga tavsiya qilgan bo'lar edingiz?

4.18. Darslikdan tashqari material (sinf dan tashqari o'qish) sifatida qaysi asar(lar)ni 6-sinf o'quvchilaringizga, albatta, o'qitgan bo'lar edingiz?

4.19. 6-sinf Adabiyot darsligi uchun yaratilgan metodik qo'llanma bilan tanishib chiqing. O'qituvchining amaliy faoliyatida metodik va o'quv qo'llanmalarining ahamiyati qanday? Fikr-mulohazalaringizni yozma bayon qiling.

4.20. Amaldagi Adabiyot darsliklari haqida yozilgan bitta maqola (ijobiy yoki salbiy munosabat bildirilgan)ni o'qing va tahlil qiling. Maqola nomi, muallifi, nashr nomi, nashr qilingan sana hamda o'zingizga ma'qul o'rinni sitata sifatida yozib ko'rsating.

9-MA'RUZA

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Amaldagi 7-sinf Adabiyot darsligining dastur bilan uyg'unlik darajasiga baho bering.

2. 7-sinf Adabiyot darsligida alohida ijodkorning hayoti va ijodi qanday yoritilganligiga e'tibor bering. Hamma ijodkorlar uchun umumiy bo'lgan o'rinlarni, alohida ijodkorlar uchungina qo'llangan usullarni ajrating.

3. 7-sinf misolida matnlarga beriladigan lug'at va izohlar tizimini o'rganib chiqing.

4. 7-sinf "Adabiyot" darsligi yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring:

4.1. Darslik mualliflari, nashriyoti, yilini yozing. Darslik qanday ruknlardan tarkib topgan?

4.2. Darslikdagi kirish maqola ("Badiiy so'z qudrati") haqida qanday fikr-mulohaza bildira olasiz?

4.3. Darslikda nechta adibning hayoti va ijodi o'rganiladi?

4.4. Darslikda berilgan nazariy ma'lumotlarni o'rganishga dasturda alohida soat ajratilganmi? Nima uchun?

4.5. Darslikda o‘rganish uchun yana qaysi janrdagi folklor materiallarini tavsiya qilasiz? Asar nomi va janrini to‘liq yozing.

4.6. Darslikda nechta lirik asar o‘qish, o‘rganish va yodlash uchun berilgan? Ushbu asarlardan nechtasini yodlagansiz va ifodali ayta olasiz?

4.7. O‘zingiz mustaqil o‘qigan o‘zbek va jahon adabiyoti namoyandalaridan qaysi shoir va uning asarini ushbu darslikning keyingi nashrlariga tavsiya qilasiz? Sababini izohlang.

4.8. Darslikda nechta epik asar o‘qish, o‘rganish va tahlil qilish uchun berilgan? Bu asarlarning to‘liq matni bilan tanishmisiz? Agar o‘qimagan bo‘lsangiz, mutaxassis sifatida to‘liq o‘qishingizni tavsiya qilamiz, chunki (Unutmang!) asar tahlili uni o‘qishdan boshlanadi!

4.9. O‘zingiz mustaqil o‘qigan o‘zbek va jahon adabiyoti namoyandalaridan qaysi nosir va uning asarini ushbu darslikning keyingi nashrlariga tavsiya qilasiz? Sababini izohlang.

4.10. Darslikda nechta dramatik asar o‘qish, o‘rganish va tahlil qilish uchun berilgan?

4.11. Agar 7-sinf o‘quvchilaringizni teatr(kinoteatr)ga olib borish imkoniyati bo‘lganda, Siz aynan qaysi asar(lar)ning sahnalashtirilishini va premyerasidan keyin birga tahlil qilishni istaysiz? Sababini ko‘rsating (mavzu, yumor, hajm, shakl, syujet, kompozitsiya, asarning ma’lum va mashhurligi...).

4.12. O‘zingiz mustaqil o‘qigan o‘zbek va jahon adabiyoti namoyandalaridan qaysi dramaturg va uning asarini ushbu darslikning keyingi nashrlariga tavsiya qilasiz? Sababini izohlang.

4.13. Darslikda berilgan savol va topshiriqlarni kuzating. Kuzatishlaringiz asosida bitta adibning hayoti va ijodi haqidagi maqola hamda asarni o‘rganish yuzasidan savol va topshiriq (10, 15, 20...)lar tizimini ishlab chiqing. Bu jarayonda Siz darslik muallifidan o‘rganing, ammo savol va topshiriqlarni darslikdan aynan ko‘chirmang.

4.14. Ma’lumki, har bir qilingan ishning yutuq va kamchiliklari bo‘lishi tabiiy. Shunday ekan Siz 7-sinf Adabiyot darsligini yaratishda mualliflar qanday yutuqlarga erishgan va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan deb hisoblaysiz? Kamida 3 ta yutuq va 3 ta kamchilik ko‘rsatishingiz kerak. Bu fikr-mulohazalaringiz bilan kelajakda yana ham sifatli, mazmunli, zamonaviy darsliklarning yaratilishiga o‘z hissangizni qo‘shasiz, balki muallifning o‘zi bo‘larsiz, deb umid qilamiz.

4.15. Adabiyot o‘qitish metodikasida “Savol-javob” degan metod mavjud. Badiiy asarlarni darsda savol-javob qilish orqali mukammal tahlil qilish mumkinmi? Katta hajmli asar matni ustida ishlashda bu usulning ahamiyati qanday? Fikringizni asoslang.

4.16. Darslikda nechta o‘zbek, nechta jahon adabiyoti namoyandalari hamda ularning asarlari o‘rganish uchun taqdim etilgan?

4.17. Darslikdagi materialga qo‘shimcha qanday adabiy-tanqidiy materialni mustaqil o‘rganishga tavsiya qilgan bo‘lar edingiz?

4.18. Darslikdan tashqari material (sinfdan tashqari o‘qish) sifatida qaysi asar(lar)ni 7-sinf o‘quvchilaringizga, albatta, o‘qitgan bo‘lar edingiz?

4.19. 7-sinf Adabiyot darsligi uchun yaratilgan metodik qo'llanma bilan tanishib chiqing. O'qituvchining amaliy faoliyatida metodik va o'quv qo'llanmalarning ahamiyati qanday? Fikr-mulohazalaringizni yozma bayon qiling.

4.20. Amaldagi Adabiyot darsliklari haqida yozilgan bitta maqola (ijobiy yoki salbiy munosabat bildirilgan)ni o'qing va tahlil qiling. Maqola nomi, muallifi, nashr nomi, nashr qilingan sana hamda o'zingizga ma'qul o'rinni sitata sifatida yozib ko'rsating.

10-MA'RUZA

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Uzviylik terminiga ta'rif bering, misollar asosida izohlab tushuntiring.
2. Ta'limning uzluksizligi deganda nimani tushunasiz? Fikringizni asoslang.
3. O'quv fanlariaro uzviylik nima?
4. 9-sinf "Adabiyot" darsligi yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring:
 - 4.1. Darslik mualliflari, nashriyoti, yilini yozing.
 - 4.2. Darslik qanday ruknlardan tarkib topgan?
 - 4.3. Darslikda nechta adibning hayoti va ijodi o'rganiladi?
 - 4.4. Darslikda berilgan nazariy ma'lumotlarni o'rganishga dasturda alohida soat ajratilganmi? Nima uchun?
 - 4.5. Darslikda o'rganish uchun yana qaysi janrdagi folklor materiallarini tavsiya qilasiz? Asar nomi va janrini to'liq yozing.
 - 4.6. Darslikda nechta lirik asar o'qish, o'rganish va yodlash uchun berilgan? Ushbu asarlardan nechtasini yodlagansiz va ifodali ayta olasiz?
 - 4.7. O'zingiz mustaqil o'qigan o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalaridan qaysi shoir va uning asarini ushbu darslikning keyingi nashrlariga tavsiya qilasiz? Sababini izohlang.
 - 4.8. Darslikda nechta epik asar o'qish, o'rganish va tahlil qilish uchun berilgan? Bu asarlarning to'liq matni bilan tanishmisiz? Agar o'qimagan bo'lsangiz, mutaxassis sifatida to'liq o'qishingizni tavsiya qilamiz, chunki (Unutmang!) asar tahlili uni o'qishdan boshlanadi!
 - 4.9. O'zingiz mustaqil o'qigan o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalaridan qaysi nosir va uning asarini ushbu darslikning keyingi nashrlariga tavsiya qilasiz? Sababini izohlang.
 - 4.10. Darslikda nechta dramatik asar o'qish, o'rganish va tahlil qilish uchun berilgan?
 - 4.11. Agar 9-sinf o'quvchilaringizni teatr(kinoteatr)ga olib borish imkoniyati bo'lganda, Siz aynan qaysi asar(lar)ning sahnalashtirilishini va premyerasidan keyin birga tahlil qilishni istaysiz? Sababini ko'rsating (mavzu, yumor, hajm, shakl, syujet, kompozitsiya, asarning ma'lum va mashhurligi...).
 - 4.12. O'zingiz mustaqil o'qigan o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalaridan qaysi dramaturg va uning asarini ushbu darslikning keyingi nashrlariga tavsiya qilasiz? Sababini izohlang.

4.13. Darslikda berilgan savol va topshiriqlarni kuzating. Kuzatishlaringiz asosida bitta adibning hayoti va ijodi haqidagi maqola hamda asarni o'rganish yuzasidan savol va topshiriq (10, 15, 20...)lar tizimini ishlab chiqing. Bu jarayonda Siz darslik muallifidan o'rganing, ammo savol va topshiriqlarni darslikdan aynan ko'chirmang.

4.14. Ma'lumki, har bir qilingan ishning yutuq va kamchiliklari bo'lishi tabiiy. Shunday ekan Siz 9-sinf Adabiyot darsligini yaratishda mualliflar qanday yutuqlarga erishgan va kamchiliklarga yo'l qo'ygan deb hisoblaysiz? Kamida 3 ta yutuq va 3 ta kamchilik ko'rsatishingiz kerak. Bu fikr-mulohazalaringiz bilan kelajakda yana ham sifatli, mazmunli, zamonaviy darsliklarning yaratilishiga o'z hissangizni qo'shasiz, balki muallifning o'zi bo'larsiz, deb umid qilamiz.

4.15. Adabiyot o'qitish metodikasida "Rollarga bo'lib o'qish" degan metod mavjud. Badiiy asarlarni darsda rollarga bo'lib o'qish orqali qanday natijalarga erishish mumkin? Yoki faqat vaqtdan yutqazamizmi? Epik, lirik, dramatik asar matni ustida ishlashda bu usulning ahamiyati qanday? Fikringizni asoslang.

4.16. Darslikda nechta o'zbek, nechta jahon adabiyoti namoyandalari hamda ularning asarlari o'rganish uchun taqdim etilgan?

4.17. Darslikdagi materialga qo'shimcha qanday adabiy-tanqidiy materialni mustaqil o'rganishga tavsiya qilgan bo'lar edingiz?

4.18. Darslikdan tashqari material (sinfdan tashqari o'qish) sifatida qaysi asar(lar)ni 9-sinf o'quvchilaringizga, albatta, o'qitgan bo'lar edingiz?

4.19. 9-sinf Adabiyot darsligi uchun yaratilgan metodik qo'llanma bilan tanishib chiqing. O'qituvchining amaliy faoliyatida metodik va o'quv qo'llanmalarning ahamiyati qanday? Fikr-mulohazalaringizni yozma bayon qiling.

4.20. Amaldagi Adabiyot darsliklari haqida yozilgan bitta maqola (ijobiy yoki salbiy munosabat bildirilgan)ni o'qing va tahlil qiling. Maqola nomi, muallifi, nashr nomi, nashr qilingan sana hamda o'zingizga ma'qul o'rinni sitata sifatida yozib ko'rsating.

GLOSSARIY

Adabiyot – (arabcha تآببءا – adab so'zining ko'pligi) – keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda fan va amaliyotning biror sohasi yutuqlarini umulashtiruvchi asarlar majmuiga nisbatan qo'llaniladi: texnikaviy adabiyot, qishloq xo'jaligi adabiyoti, siyosiy adabiyot kabi. Tor ma'noda inson va voqelikni badiiy so'z orqali chizilgan obrazlar vositasida aks ettiruvchi san'at turini anglatadi, u badiiy adabiyot deb ham yuritiladi. Adabiyot avval og'zaki shaklda mavjud bo'lgan, yozuv paydo bo'lgach, yozma shaklga o'tgan. Adabiyot so'z orqali inson tuyg'u va kechinmalarini, uni qurshab turgan ijtimoiy hayot va tabiatni butun murakkabligi bilan ifodalash imkoniyatiga egadir. Shuning uchun ham u san'atning boshqa turlariga qaraganda ommaviyroq hisoblanadi. Adabiyotning yetakchi uch turi – epos, lirika va drama mavjud bo'lib, badiiy asarlar mana shu uch tur asosidagi janrlarda yaratiladi. Keyingi paytlarda adabiyotshunoslikda paremik tur haqida ham mulohazalar bildirilmoqda

Badiiy adabiyot san'atning boshqa turlari kabi milliyliги, xalqchilligi va zamonaviyligi bilan xarakterlanadi. Shunga ko'ra adabiyot har bir xalq madaniyatining tarkibiy qismi sanaladi.

Adabiy asar – boshqa og'zaki yoki yozma bitiklardan o'zida muallifning badiiy mahorati belgilarini jamlagani bilan ajralib turuvchi ko'rkam adabiyot mahsuloti. Mazmunan bir butunlik va tugallikka ega, muayyan g'oyaviy-badiiy va estetik maqsadga yo'naltirilgan adabiy asar ijodkor va kitobxon orasidagi hissiy-intellektual vositadir.

Davlat ta'lim standarti – davlat tomonidan ta'lim oldiga qo'yiladigan talablar majmui. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajasini belgilab beradi.

Dastur – eng muhim davlat hujjati bo'lib, o'qituvchining ish faoliyatidagi eng asosiy manba, uni bajarish majburiydir. O'qituvchining asosiy vazifasi davlat dasturi talablarini to'la va samarali amalga oshirishdan iborat. Shunga ko'ra ham o'qituvchi uni to'la bilishi, barcha qismlari haqida aniq tasavvur va ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Darslik – o'quvchilar bilimining izchil o'sishiga, ilmiy asosga tayanishiga imkon beradigan, bolalarning yoshi hisobga olingan, mavzularning mantiqiy aloqadorligiga e'tibor qaratilgan asosiy o'quv quroli. Undagi material orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar targ'ib qilinishi, o'quvchilardagi yuksak axloqiy va estetik didning shakllanishi va tarbiyalanishiga xizmat qilinmog'i lozim.

Zamonaviy darslik – davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqloq g'oyasi singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarining mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan, did bilan ishlangan rasmlar bilan boyitilgan matbaa sifati yuqori bo'lgan o'quv quroli. Ularda bugungi fan-texnika yutuqlari, zamon yangiliklari, yangi texnologiyalar aks etmog'i kerak.

Adabiy ekskursiya – o'quvchilarni yozuvchilar yashagan joylarga, ularning uy-muzeylariga olib borish yoki ular haqidagi telefilm, kinofilmlarni birgalikda tomosha qilish.

Aktualizatsiya (lotincha actualis dan – amalda mavjud, hozirgi, zamonaviy) – 1) falsafada – imkoniyat holatidan voqelik holatiga o'tish; 2) pedagogikada – o'quvchilarning ma'lum bir muammo, masala, mavzu va hokazoga oid bo'lgan bilimlarini aktivizatsiya qilish.

Analiz (yunoncha analysis – parchalash, bo'lib tashlash) – obyektни (hodisa, fakt, voqea va hokazoni) tarkibiy qismlarga (elementlarga) bo'lib tashlashga asoslangan ko'rib chiqish, o'rganish. Tahlil asosiy va ikkinchi o'rinli aloqalarni hamda yaxlitning elementlarini xossa va funksiyalarini aniqlashga yo'l qo'yadi.

Baholash mezonlari – o'quvchining o'zlashtirishini, yagona bitta raqamli ball yordamida emas, balki butunlay baholashni maqsad deb biladigan baholash bo'yicha qo'llanmadir.

Birgalikdagi o'qish – kichik guruhlarda interaktiv va instruksion ish protseduralarini aniqlaydigan umumlashtirilgan termin.

Davlat ta'lim standarti – davlat tomonidan ta'lim oldiga qo'yiladigan talablar majmui. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajasini belgilab beradi. Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Dastur – eng muhim davlat hujjati bo'lib, uni bajarish majburiydir. O'qituvchining asosiy vazifasi davlat dasturi talablarini to'la va samarali amalga oshirishdan iborat. Shunga ko'ra ham o'qituvchi uni to'la bilishi, uning barcha qismlari haqida aniq tasavvur va ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Dastur o'qituvchining ish faoliyatidagi eng asosiy manbadir.

Darslik – o'quvchilar bilimining izchil o'sishiga, ilmiy asosga tayanishiga imkon berishi, bolalarning yoshini hisobga olish, mavzularning mantiqiy aloqadorligiga e'tibor berishi lozim. Unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar targ'ib qilinishi, o'quvchilardagi yuksak axloqiy va estetik didlarning shakllanishi va tarbiyalanishiga xizmat qilmog'i lozim.

Diskussiya (lotincha discussion dan – o'rganish, tadqiqot) – 1) qandaydir bir masalani suhbatda, majlisda muhokama, munozara qilish; 2) masalaning umumiy yechimini ishlab chiqishga yordam beruvchi qo'shma faoliyatni tashkil etish usuli; 3) o'quvchilarni birgalikda yechimni izlashga qo'shish hisobiga ta'lim jarayoni samarasini oshiruvchi ta'lim uslubi.

Integratsiya (lotincha integratio dan – tiklash, to'ldirish, birlashish, integer dan – butun) – rivojlanish jarayoni, uning natijasi, alohida maxsuslashtirilgan elementlarni (masalan, ilmdagi integratsiya, iqtisodiy integratsiya) o'zaro bog'liqligiga asoslangan tizim ichidagi birlik va yaxlitlikka yetishish.

Intellekt (intellect lotincha intellectus – anglash, tushunish, fahmlash) – odamning aqliy operatsiyalar stili (taqqoslash, ko'chirish, analogiya, abstraktlashish va hokazo) va muammolarni yechish strategiyasi bilan ifoda etiluvchi fikrlash qobiliyati.

Interaktiv metodlar – o'quvchilar o'rtasida hamda o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasida o'zaro harakatni talab qiluvchi metodlar. "Interaktiv" so'zi inglizcha "interact" dan kelib chiqqan. "Inter" – bu "o'zaro", "act" – "harakat qilmoq".

Ifodali o'qish – adabiyot o'qitishda keng qo'llaniladigan metodlardan biri.

Ijodiy o'qish – matn mazmunini o'zgartirmasdan o'qish usuli.

Yangi pedagogik texnologiya – o'qitishning yangi usullari tizimi. Texnologiya – yunoncha "techne" – san'at, mahorat; "logos" – fan, bo'lim. Texnologiya – bola shaxsiga ta'sir ko'rsatish san'ati. Demak, pedagogik texnologiya – ta'lim berishdagi mahorat yoki pedagogik san'at. Bu ibora amerikalik olim V. Shinner tomonidan XX asrning 50-yillarda birinchi marta

“O‘qitish texnologiyasi” deb qo‘llangan. Pedagogik texnologiya – ta‘lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy-uslubiy asoslangan eng faol vosita, usullar majmui, shuningdek, pedagogik faoliyat natijalarining yaxlitligi.

Kommunikatsiya (lotincha communicatio – communico dan – umumlashtiraman, bog‘layman, muomala qilaman) – 1) Muomala, odamdan odamga ma‘lumotni uzatish – bu odamlarning, ularning bilish-mehnat faoliyati jarayonidagi hamkorlik shakli, u asosan, til yordamida amalga oshiriladi (kamdan-kam boshqa belgi sistemalari yordamida). 2) Aloqa yo‘li, bir joyning boshqa joy bilan bog‘lanishi.

Konsepsiya (lot.) – qandaydir bir predmet, hodisa, fakt va hokazoga oid aqliy qurilma, qarashlar sistemasi.

Ko‘nikma va malaka – fanlarni o‘zlashtirish yuzasidan talabalar egallashi lozim bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtirishga oid qobiliyat, iqtidor natijasi.

Ma‘naviy-axloqiy tarbiya – tarbiyaning shaxs hissiyotiga, ruhiy dunyosini ta‘minlashga qaratiladigan tarbiya.

Mezon – (yunoncha kriterion – mulohaza vositasi) – uning asosida bir nimani baholash, aniqlash yoki klassifikatsiyasi o‘tkaziladigan xususiyat; baholash o‘lchovi.

Motivatsiya – odam xatti-harakatlarini ifodalovchi faktorlar sistemasi, odam xatti-harakatlari, uning boshi, yo‘nalishi va aktivligini tushuntirib beruvchi ehtiyoj va talablari majmui.

Metod – (yunoncha methodos – tadqiqot, o‘rganish, bayon etish yo‘li, usuli) – qandaydir bir yo‘l bilan ish tutish, harakat qilish usuli, yo‘li; bilish usullari va operatsiyalari; bilish va amaliyotda aniq bir natijalarga erishish usuli.

Metodik qo‘llanma – darslikdagi materialni o‘qitish-o‘rgatish usullari jamlangan, o‘qituvchiga amaliy yordam sifatida ishlab chiqilgan qo‘llanma, o‘qituvchi kitobi.

Modul – 1) ma‘lumotning nisbatan yakunlangan va mustaqil birliklari, qismlari; 2) har qanday sistema, tashkilotning bo‘linadigan, nisbatan mustaqil qismi.

Modulli o‘qitish – ta‘lim jarayonini tashkil etish, unda o‘qish informatsiyasi modullarga bo‘linadi. Bir necha modullarning jamligi aniq bir ta‘lim mavzusi yoki hattoki butun o‘quv dissiplinasi mazmunini ochib berishga yo‘l qo‘yadi. Modullar (yangi hodisalar, faktlar haqida ma‘lumot saqlaydilar) informatsion (materiallar, darsliklar, kitoblar), operatsion (amaliy mashg‘ulotlar va topshiriqlar) bo‘lishi mumkin.

Muammoli vaziyat (yunoncha problema – masala, topshiriq va lotincha situatio – vaziyat) – ziddiyatni o‘z ichiga olgan va bir xil ma‘noli yechimi bo‘lmagan vaziyat. Faoliyat jarayonida qandaydir bir ziddiyatni anglash (masalan, oldin o‘zlashtirilgan bilimlar yordamida nazariy yoki amaliy topshiriqni bajara olmaslik), maydonga kelgan ziddiyatni yechishga yo‘l qo‘yuvchi yangi bilimlar ehtiyoji kelib chiqishiga olib keladi. Muammoni anglash va uning yechimini qidirishning boshi o‘z-o‘ziga savol qo‘yishdan boshlanadi.

Muammoli ta'lim – ta'lim, unda o'qituvchi, sistemali ravishda muammoli vaziyatlarni tuzgan va o'quvchilarning o'quv muammolarini yechishga oid faoliyatini tashkil etgan holda, ularning mustaqil qidirish faoliyatini, ilmning tayyor xulosalarini o'zlashtirgan holda, optimal bog'liqligini ta'minlaydi. Muammoli ta'lim o'quvchilarning bilish mustaqilligiga, ularning logik, ratsional, kritik va ijodiy fikrlashiga va bilish qobiliyatlariga qaratilgan. Fikrlash psixologiyasi qonuniyligiga, ilmiy tadqiqot logikasiga asoslangan holda, muammoli ta'lim o'quvchining zehni, uning emotsional sferasining rivojlanishiga va uning asosida dunyoqarash shakllanishiga yordam beradi. Aynan shu muammoli ta'limning an'anaviy tushuntirish-illyustrativ ta'limdan asosiy farqini tashkil etadi. Muammoli ta'lim faqatgina ilmiy bilishning natijalarini o'zlashtirishni emas, balki bilish yo'lining o'zginasini ham, ijodiy faoliyat usullarini ham ko'zda tutadi.

Munosabat – bir yoki undan ko'proq odamlarning, shaxslararo munosabatlarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash, birgalikdagi faoliyatning qo'shma natijasiga kelish maqsadidagi o'zaro harakati; bola psixik va ijtimoiy rivojining eng muhim faktorlaridan biri. Aloqaning yetishmovchiligi va chegaralanishi bola rivojlanishini sekinlashtiradi va sayozlashtiradi.

Portfolio – italyan tilidan tarjima qilganda “hujjatlari bor papka”, “mutaxassis papkasi”ni anglatadi. Portfolio – asosan o'z imkoniyatlarini ko'rsatishga qaratilgan ishlar to'plami(banki)dir.

Rivojlanish – odamda, tashqi va ichki faktorlar ta'sirida o'z-o'zidan yuz beradigan, to'plangan, sifatli o'zgarishlar.

Stimul (lotincha stimulus, aynan – uchi o'tkir, hayvonlarni haydaydigan tayoq) – harakatga undash, xulqning undovli sababi.

Struktura (lotincha structura – qurilish, joylashish, tartib) – obyektning, uni yaxlitligini, ya'ni, turli ichki va tashqi o'zgarishlarda asosiy xossalarni saqlashni ta'minlovchi, turg'un aloqalar.

Sinf dan tashqari mashg'ulotlar – adabiy ijodiy to'garaklar o'tkazish, o'quvchilarni adabiy ekskursiyalarga jalb qilish va b.

Sistemali fikrlash – bu, o'rganilayotgan yoki ko'rib chiqilayotgan sistema modelini tuzishga qaratilgan fikrlashdir. Fikrlashning ushbu turi sistemali tahlilni qo'llaydi.

Sistemali tahlil – murakkab muammolar (siyosiy, harbiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy va texnik sifatga ega bo'lgan) bo'yicha yechimlarni tayyorlash va asoslash uchun qo'llaniladigan metodologik vositalarning jamidir. Sistemali yondashuvga tayanadi.

Suhbat metodi – adabiyot o'qitish metodlaridan biri.

Tadqiqot – yangi bilimlarni ishlab chiqishni maqsad qilgan, bilish faoliyati turlaridan biri.

Tajriba – amaliy yo'lda o'zlashtirilgan bilim, uquv va malakalar majmuasidir.

Tarbiya – 1) aniq bir maqsadga qaratilgan shaxsni madaniyatga qo'shish jarayoni; 2) insonni ongli va maqsadga qaratilgan ravishda o'stirish oila, jamiyat, davlat maqsadlariga oid holda. Tarbiya – ko'p qiymatlidir, uni ijtimoiy hodisa,

faoliyat, jarayon, qiymat, sistema, ta'sir, o'zaro harakat va hokazo sifatida ko'zda tutadilar.

Ta'lim – 1) shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga ko'ra, shaxsning aniq bir maqsadga qaratilgan ta'lim va tarbiyasi jarayoni; 2) sistemalashtirilgan bilim, uquv va malakalarni o'zlashtirish jarayoni va natijasi; 3) odamni hayot va mehnatga tayyorlashning zarur sharti. **Ta'lim tizimi** – ta'lim jarayonidagi uzluksizlik, ilmiylik va amaliylik.

Ta'lim vositalari – o'quv kabinetlari va ularning informatsion-predmet muhiti ta'minining zarur elementi, shuningdek, maktablar o'quv-material bazasining eng muhim komponenti. "Ta'lim vositalari" terminiga quyidagi ekvivalentlar mos keladi: "o'quv uskunalari", "o'quv ko'rgazma qurollari va o'quv qurollari", "didaktik vositalar". Alohida guruhni "texnik o'quv vositalari" – kompyuter va kompyuter tarmoqlari, interaktiv video; elektron texnika asosidagi media-ta'lim vositalari, o'quv uskunalari va hokazolar tashkil etadi.

Ta'lim muhiti – o'quvchilar aniq bir bilim, uquv va malakalarni egallashiga qaratilgan maxsus tashkil etilgan muhitdir, unda o'qitish shakllari o'zgartirish uchun harakatchan va ochiq bo'ladilar. Boshqachasiga aytganda, bu, o'qitish va rivojlanish jarayonini stimullashtiradigan tashqi tashkiliy kuchdir.

Uzluksizlik – maktabgacha ta'lim bilan boshlang'ich ta'lim, boshlang'ich ta'lim bilan umumiy o'rta ta'lim, umumiy o'rta ta'lim bilan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi orasidagi ta'lim mazmunida buzilish bo'lmasligi, ya'ni keyingi ta'lim turi mazmuni oldingisini uzluksiz davom ettirilishi tushuniladi.

Uzviylik – ikki xil ma'noda qo'llaniladi. Birinchidan, ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik. Bunda ta'limning keyingi turi mazmuni avvalgisini faqat davom ettirishi, qisman takrorlab, mazmun jihatidan uzviy bog'langan holda keyingi ta'lim turlarida davom ettirishi kerak. Ikkinchidan, o'quv fanlari orasida uzviylik. Buni fanlararo yoki predmetlararo bog'lanish deyiladi. Uzviylik masalasi ilgari ham, hozir ham o'qish, o'rganishning asosiy sharti ekanligi sir emas. Ta'limning uzviyligi umumdidaktik tamoyil sanalgani uchun har qaysi fan, predmetni o'qitishda uni chetlab o'tish mumkin emas.

Faoliyat – atrofdagi voqelik bilan aktiv o'zaro harakat, uning jarayonida odam obyektga maqsadli ta'sir ko'rsatadi va, shuning bilan, o'z ehtiyojlarini qondiradi. Inson faoliyatining asosiy turi mehnat bo'ladi. Mehnat bilan inson faoliyatining boshqa turlari genetik bog'liqdir (o'yin, o'qish va hokazo). Mehnat asosida ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida, aqliy mehnat, inson va jamiyatning alohida bir rivojlanish bosqichi sifatida kelib chiqadi.

Funksiya – (lotincha *functio* – bajarish – amalga oshirish) – faoliyat, majburiyat, ish; qandaydir bir obyektning berilgan aloqalar sistemasidagi xossalarning tashqi ifodasi (masalan, sezgi organlari funksiyasi).

Xulosa chiqarish – yangi xulosani bir nechta mulohazalardan olishdan iborat aqliy operatsiya.

Sharhli o'qish – badiiy asar, undagi adabiy qahramonlar, tarixiy va to'qima voqealar haqida atroflicha tushuncha berishga mo'ljallangan usul.

O'qitish – o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi bir maqsadga qaratilgan faoliyati, uning jarayonida shaxsning rivojlanishi, uning ta'limi va

tarbiyasi amalga oshiriladi. O'qitish jarayonining asosiy tashkiliy qismlari – dars berish va o'qish. Ularning birligi o'z ichiga ta'limning asosiy didaktik funksiyasini qamrab oladi. Ma'furaviy qarash – bu o'rinda adabiyot o'qituvchisining milliy ma'furaga munosabati ko'zda tutilmoqda.

O'qituvchining ijtimoiy-pedagogik qiyofasi – o'qituvchining siyosiy-ma'naviy va ta'limiy tushunchalarni egallashi.

O'qituvchining vazifasi – o'qituvchi egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui.

O'qituvchi nutqi – ko'rgazmalilikning muhim turi.

O'quv qo'llanma – darslikdagi materialga qo'shimcha sifatida foydalanish mumkin bo'lgan adabiy-tanqidiy ma'lumotlar jamlangan qo'llanma.

Adabiyot tarixi – adabiyotshunoslik fanining mustaqil tarkibiy qismi bo'lib, unda biror xalqning adabiyoti, uning yuzaga kelishi, taraqqiyot bosqichlari, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi. Adabiyot tarixi tarix, tilshunoslik, xalqshunoslik, tarixiy geografiya fanlari bilan yaqin munosabatda bo'ladi. Adabiyot tarixi, shuningdek, adabiyot nazariyasi va folklorshunoslik bilan ham uzviy aloqadordir. Chunki har bir xalq adabiyoti zamirida og'zaki ijod manbalari muhim omil sanaladi. Adabiyot tarixi ayni vaqtda janrlar va uslublar, ijodiy metodlar tarixi hamdir. Bu holat uning adabiyot nazariyasi bilan ham mushtarak soha ekanligini isbotlaydi.

Adabiyot nazariyasi – adabiyotshunoslik fanining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Badiiy adabiyot, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, yaratilish qonuniyatlari, taraqqiyot bosqichlari, badiiy asarning tasviriy hamda ifoda vositalari, tarkibiy tuzilishi, adabiy tur va janrlarni, adabiy jarayon xususiyatlarini o'rganadi. Adabiyot nazariyasi so'z san'atining ijodiy tajribalariga tayangan holda ish ko'radi, o'z nazariy xulosalarini turli davrlarda yaratilgan eng sara badiiy javohirlar tahlilidan, tarixiy-adabiy jarayonni o'rganishdan keltirib chiqaradi.

Adabiyot nazariyasi uzoq tarixga ega fanlardan biridir. Mazkur fan Sharqda asosan uch yo'nalishda rivojlangan. Bular – aruz ilmi, qofiya ilmi va balog'a ilmi, ya'ni she'riy san'atlar haqidagi yo'nalishlardir.

Ko'nikma – fanlarni o'zlashtirish natijasida talabning hosil bo'lgan bilimlarni namoyish qilish qobiliyati, iqtidori.

Ta'limi tizimi – ta'lim jarayoni – o'qitish va o'qish: undagi uzviylik, uzluksizlik, ilmiylik va amaliylik.

Malaka – fanni, ishni, kasbni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba, mahorat. **Ma'naviy-axloqiy tarbiya** – tarbiyaning shaxs hissiyotiga, ruhiy dunyosini ta'minlashga qaratilgan tarbiya.

Prinsip (tamoyil) – u yoki bu fan amal qiladigan talab, mezonlar jami.

Ta'lim jarayoni – o'qitish va o'qish jarayoni.

Kommunikatsiya (lotincha communicatio – communico dan – umumlashtiraman, bog'layman, muomala qilaman) – 1) Muomala, odamdan odamga ma'lumotni uzatish – bu odamlarning, ularning bilish-mehnat faoliyati

jarayonidagi hamkorlik shakli, u asosan, til yordamida amalga oshiriladi (kamdan-kam boshqa belgi sistemalari yordamida). 2) Aloqa yo‘li, bir joyning boshqa joy bilan bog‘lanishi.

Konsepsiya (lot.) – qandaydir bir predmet, hodisa, fakt va hokazoga oid aqliy qurilma, qarashlar sistemasi.

Mezon – (yunoncha kriterion – mulohaza vositasi) – uning asosida bir nimani baholash, aniqlash yoki klassifikatsiyasi o‘tkaziladigan xususiyat; baholash o‘lchovi.

Motivatsiya – odam xatti-harakatlarini ifodalovchi faktorlar sistemasi, odam xatti-harakatlari, uning boshi, yo‘nalishi va aktivligini tushuntirib beruvchi ehtiyoj va talablari majmui.

Metod – (yunoncha methodos – tadqiqot, o‘rganish, bayon etish yo‘li, usuli) – qandaydir bir yo‘l bilan ish tutish, harakat qilish usuli, yo‘li; bilish usullari va operatsiyalari; bilish va amaliyotda aniq bir natijalarga erishish usuli.

Metodik qo‘llanma – darslikdagi materialni o‘qitish-o‘rgatish usullari jamlangan, o‘qituvchiga amaliy yordam sifatida ishlab chiqilgan qo‘llanma, o‘qituvchi kitobi.

Ifodali o‘qish – adabiyot o‘qitishda keng qo‘llaniladigan metodlardan biri.

Ijodiy o‘qish – matn mazmunini o‘zgartirmasdan o‘qish usuli.

Yangi pedagogik texnologiya – o‘qitishning yangi usullari tizimi. Texnologiya – yunoncha “techne” – san‘at, mahorat; “logos” – fan, bo‘lim. Texnologiya – bola shaxsiga ta‘sir ko‘rsatish san‘ati. Demak, pedagogik texnologiya – ta‘lim berishdagi mahorat yoki pedagogik san‘at. Bu ibora amerikalik olim V. Shinner tomonidan XX asrning 50-yillarda birinchi marta “O‘qitish texnologiyasi” deb qo‘llangan. Pedagogik texnologiya – ta‘lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy-uslubiy asoslangan eng faol vosita, usullar majmui, shuningdek, pedagogik faoliyat natijalarining yaxlitligi.

Kommunikatsiya (lotincha communicatio – communico dan – umumlashtiraman, bog‘layman, muomala qilaman) – 1) Muomala, odamdan odamga ma‘lumotni uzatish – bu odamlarning, ularning bilish-mehnat faoliyati jarayonidagi hamkorlik shakli, u asosan, til yordamida amalga oshiriladi (kamdan-kam boshqa belgi sistemalari yordamida). 2) Aloqa yo‘li, bir joyning boshqa joy bilan bog‘lanishi.

Konsepsiya (lot.) – qandaydir bir predmet, hodisa, fakt va hokazoga oid aqliy qurilma, qarashlar sistemasi.

Mezon – (yunoncha kriterion – mulohaza vositasi) – uning asosida bir nimani baholash, aniqlash yoki klassifikatsiyasi o‘tkaziladigan xususiyat; baholash o‘lchovi.

Motivatsiya – odam xatti-harakatlarini ifodalovchi faktorlar sistemasi, odam xatti-harakatlari, uning boshi, yo‘nalishi va aktivligini tushuntirib beruvchi ehtiyoj va talablari majmui.

Annotatsiya – (lotincha annotatio – qayd) qisqacha ta‘rif. Kitob, maqola, qo‘lyozma mundarijasini, mavzu yo‘nalishi va boshqa jihatlarini ochib berishga qaratilgan kichik hajmli matn. Annotatsiyani kitobning o‘zida, bibliografik

ko'rsatkichlarda va kutubxona kataloglarida uchratish mumkin. Uning vazifasi o'quvchilarda muayyan kitob, maqola yoki qo'lyozma to'g'risida umumiy tasavvur tug'dirish va ularga adabiyot tanlashda yordam ko'rsatishdir. Masalan, Alisher Navoiyning 1991-yilda chop etilgan "Saddi Iskandariy" dostoniga nashriyot tomonidan shunday annotatsiya berilgan:

"Xamsa"ning yakunlovchi dostoni "Saddi Iskandariy" ham ma'lum an'analar zaminida yaratilgan. Alisher Navoiy Iskandarning (Aleksandr Makedonskiy) sarguzashtlari fonida adolatparvarlik, markazlashgan davlat tuzish, xalqlar do'stligi, insoniylik borasidagi o'zining qarashlarini talqin etgan. Doston nasriy matni bilan birga chop etilayotir".

Anonim (I) – (yunoncha anonymos – nomsiz) muallifi noma'lum bo'lgan asar, xat va boshqalar.

Anonim (II) – xati yoki asarida o'z nomini yashirgan muallif. Masalan, "Abushqa" lug'atining muallifi anonimdir.

O'qituvchining ijtimoiy-pedagogik qiyofasi – o'qituvchining siyosiy-ma'naviy va ta'limiy tushunchalarni egallashi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar – adabiy-ijodiy to'garaklar o'tkazish, o'quvchilarni adabiy ekskursiyalarga jalb qilish va h. k.

Adabiy ekskursiya – o'quvchilarni yozuvchilar yashagan joylarga, ularning uy-muzeylariga olib borish yoki ular haqidagi telefilm, kinofilmlarni birgalikda tomosha qilish.

Metod – tabiat va jamiyat hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli.

Metodika – biror ishni amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi, ilmiy-tadqiqot metodikasi.

Ifodali o'qish – adabiyot o'qitishda keng qo'llaniladigan metodlardan biri.

Ijodiy o'qish – matn mazmunini o'zgartirmasdan o'qish usuli.

Sharhli o'qish – badiiy asar, undagi adabiy qahramonlar, tarixiy va to'qima voqealar haqida atroflicha tushuncha berishga mo'ljallangan usul.

Suhbat metodi – adabiyot o'qitish metodlaridan biri.

Uzluksizlik – maktabgacha ta'lim bilan boshlang'ich ta'lim, boshlang'ich ta'lim bilan umumiy o'rta ta'lim, umumiy o'rta ta'lim bilan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi orasidagi ta'lim mazmunida buzilish bo'lmasligi, ya'ni keyingi ta'lim turi mazmuni oldingisini uzluksiz davom ettirishi tushuniladi.

Uzviylik – ikki xil ma'noda qo'llaniladi. Birinchidan, ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik. Bunda ta'limning keyingi turi mazmuni avvalgisini faqat qisman takrorlab, mazmun jihatidan uzviy bog'langan holda keyingi ta'lim turlarida davom ettirishi kerak. Ikkinchidan, o'quv fanlari orasida uzviylik. Buni fanlararo yoki predmetlararo bog'lanish deyiladi. Uzviylik masalasi ilgari ham, hozir ham o'qish, o'rganishning asosiy sharti ekanligi hech kimga sir emas. Ta'limning uzviyligi umumdidaktik tamoyil sanalgani uchun har qaysi fan, predmetni o'qitishda uni chetlab o'tish mumkin emas.

Faoliyat – atrofdagi voqelik bilan aktiv o'zaro harakat, uning jarayonida odam obyektga maqsadli ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, o'z ehtiyojlarini qondiradi. Inson faoliyatining asosiy turi mehnatdir. Mehnat bilan inson faoliyatining boshqa

turlari bog‘liq (o‘yin, o‘qish va hokazo). Ular ham mehnat asosida ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida, aqliy mehnat, inson va jamiyatning alohida bir rivojlanish bosqichi sifatida kelib chiqadi.

Funksiya – (lotincha “function” – bajarish, amalga oshirish) – faoliyat, majburiyat, ish; qandaydir bir obyektning berilgan aloqalar sistemasidagi xossalarning tashqi ifodasi (masalan, sezgi organlari funksiyasi).

Xulosa chiqarish – yangi xulosani bir nechta mulohazalardan olishdan iborat aqliy operatsiya.

Sharhli o‘qish – badiiy asar, undagi adabiy qahramonlar, tarixiy va to‘qima voqealar haqida atroflicha tushuncha berishga mo‘ljallangan usul.

O‘qitish – o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi bir maqsadga qaratilgan faoliyati, bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, uning ta‘lim-tarbiyasi amalga oshiriladi. O‘qitish jarayonining asosiy tashkiliy qismlari – dars berish va o‘qish. Ularning birligi o‘z ichiga ta‘limning asosiy didaktik funksiyasini qamrab oladi. **Yangi pedagogik texnologiya** – o‘qitishning yangi usullari tizimi. Texnologiya – yunoncha “techne” – “san‘at, mahorat”, “logos” – “fan”, “ta‘limot”. Texnologiya bola shaxsiga ta‘sir ko‘rsatish san‘ati. Demak, pedagogik texnologiya – ta‘lim berishdagi mahorat yoki pedagogik san‘at. Pedagogik texnologiya deganda ta‘lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan, ilmiy-uslubiy asoslangan eng faol vosita, usullar majmuini tushunamiz, shuningdek, pedagogik faoliyat natijalarining yaxlitligi nazarda tutiladi. Yangi pedagogik texnologiyalar o‘quvchilar faolligini oshirishda muhim omil bo‘lib kelmoqda. Ularni nazariy tomondan puxta egallash, amaliyotda to‘g‘ri qo‘llay olish ta‘lim samaradorligining rivojlanishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

TESTLAR

I VARIANT

1. Ta‘lim mazmuni nimalarda lohihalashtiriladi?
 - A. O‘quv adabiyotlarida
 - B. Muqobil o‘quv darsliklarida
 - C. O‘quv dasturlarida
 - D. Davlat ta‘lim standartlarida
2. Ta‘lim mazmuni qanday me‘yoriy hujjatlarda aks etadi?
 - A. Ta‘lim konsepsiyalarida
 - B. DTS, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarida
 - C. Darsliklarda
 - D. O‘quv adabiyotlarida
3. Qanday manbalar o‘quv adabiyotlari hisoblanadi?
 - A. O‘quv fanlari bo‘yicha yaratilgan darsliklar, o‘quv hamda metodik qo‘llanmalar, mashq va masalalar to‘plami, xrestomatiyalar, ma‘lumotnomalar, atlaslar, o‘quv lug‘atlari

B. Tayanch va namunaviy o'quv dasturlari asosida amaldagi ishchi dasturlarga muqobil yaratilgan manba

C. Ta'lim jarayoni bo'yicha natijalarni baholash va tahlil qilishda e'tiborga olinadigan omillar

D. Me'yoriy hujjat bo'lib, unda har bir o'quv predmetining ochib beriladigan mazmuni

4. Muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba nima deb ataladi?

A. Metodik qo'llanma

B. O'quv qo'llanma

C. Davlat ta'lim standarti

D. Darslik

5. Darslik o'zida qanday xususiyatlarni aks ettirishi kerak?

A. Barcha javoblar to'g'ri

B. Ma'lumotlar o'quvchilar uchun qiziqarli va qisqa bo'lishi

C. Tushunarli, ko'rgazmali va estetik xususiyatga ega bo'lishi

D. Ta'lim mazmuniga qo'yiladigan barcha talablarga javob bera olishi

6. Darsliklar qanday didaktik vazifalarni bajaradi?

A. Rag'batlantirish, axborot uzatish

B. Nazorat-tuzatish, muvofiqlashtirish

C. Rivojlantirish-tarbiyalash, o'qitish

D. Barcha javoblar to'g'ri

7. Darsliklarning o'quvchilarni fanni o'rganishga yo'naltirish, ularda fan asoslarini o'zlashtirishga nisbatan ijobiy munosabat va qiziqishni shakllantirishga oid vazifasi qanday nomlanadi?

A. O'qitish

B. Rivojlantirish-tarbiyalash

C. Rag'batlantirish

D. Nazorat-tuzatish

8. Darsliklarni yaratishda qanday shartlar inobatga olinishi zarur?

A. Bayon qilinayotgan ilmiy bilimlar nazariy, g'oyaviy jihatdan tizimli, izchil, ishonchli bo'lishi

B. O'quvchilarning tegishli yosh davri ta'lim oluvchilarning estetik didlariga, psixologik xususiyatlariga mos kelishi

C. Fanda isbot qilinmagan, ma'lum ta'rif va qoidalarga ega bo'lmagan, muammoli masalalardan xoli bo'lishi

D. Barcha javoblar to'g'ri

9. O'quv darsliklari ta'lim muassasasi faoliyatiga qanday tatbiq etiladi?

A. Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi yoki Xalq ta'limi vazirligi tomonidan muayyan ta'lim muassasalari uchun tavsiya etiladi

B. Ta'lim muassasalarining Pedagogik kengashlari tomonidan tavsiya etiladi

C. Darsliklarga mas'ul ekspertlar tomonidan tavsiya etiladi

D. Respublika Ta'lim markazi tomonidan tavsiya etiladi

10. Darsliklarni muvofiqlashtirishga doir didaktik vazifaga qaysi javobda to'g'ri ta'rif berilgan?

A. Mashq qilish, ta'lim natijalarini tekhsirish, o'quvchilarda o'zini baholash, tuzatish layoqati va zarur ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun mashqlarni tavsiya etish

B. Material ustida ishlash jarayonida ta'limning boshqa vositalari: xaritalar, ko'rgazmali materiallar va shu kabilarni jalb etish

C. O'quvchilarga axborot yetkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirish

D. O'qitish: konspekt yozish, asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatish, mantiqiy eslab qolish

II VARIANT

1. Darsliklar qanday didaktik vazifalarni bajaradi?

A. Barcha javoblar to'g'ri B. Nazorat-tuzatish, muvofiqlashtirish C. Rivojlantirish-tarbiyalash, o'qitish

D. Rag'batlantirish, axborot uzatish

2. Darsliklarning o'quvchilarni fanni o'rganishga yo'naltirish, ularda fan asoslarini o'zlashtirishga nisbatan ijobiy munosabat va qiziqishni shakllantirishga oid vazifasi qanday nomlanadi?

A. Nazorat-tuzatish B. Rivojlantirish-tarbiyalash C. O'qitish D. Rag'batlantirish

3. Darsliklarni yaratishda qanday shartlar inobatga olinishi zarur?

A. Bayon qilinayotgan ilmiy bilimlar nazariy, g'oyaviy jihatdan tizimli, izchil, ishonchli bo'lishi

B. O'quvchilarning tegishli yosh davri ta'lim oluvchilarning estetik didlariga, psixologik xususiyatlariga mos kelishi

C. Fanda isbot qilinmagan, ma'lum ta'rif va qoidalarga ega bo'lmagan, muammoli masalalardan xoli bo'lishi

D. Barcha javoblar to'g'ri

4. O'quv darsliklari ta'lim muassasasi faoliyatiga qanday tatbiq etiladi?

A. Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi yoki Xalq ta'limi vazirligi tomonidan muayyan ta'lim muassasalari uchun tavsiya etiladi

B. Ta'lim muassasalarining Pedagogik kengashlari tomonidan tavsiya etiladi

C. Darsliklarga mas'ul ekspertlar tomonidan tavsiya etiladi

D. Respublika Ta'lim markazi tomonidan tavsiya etiladi

5. Darsliklarni muvofiqlashtirishga doir didaktik vazifaga qaysi javobda to'g'ri ta'rif berilgan?

A. Material ustida ishlash jarayonida ta'limning boshqa vositalari: xaritalar, ko'rgazmali materiallar va sh. k.larni jalb etish

B. Mashq qilish, ta'lim natijalarini tekhsirish, o'quvchilarda o'zini baholash, tuzatish layoqati va zarur ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun mashqlarni tavsiya etish

C. O‘quvchilarga axborot yetkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirish

D. O‘qitish: konspekt yozish, asosiy fikrlarni ajratib ko‘rsatish, mantiqiy eslab qolish

6. O‘quv fani nima?

A. Ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo‘yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni ta‘minlovchi manba.

B. Ta‘limning aniq yo‘nalishini belgilab beruvchi yetakchi g‘oya

C. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil qilinadigan, ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon

D. Ta‘lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, boshqarish va nazorat qilish, istiqbollarni belgilash

7. Darslik mazmunining o‘quvchilarga ma‘naviy-axloqiy ta‘sir ko‘rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ularni faol fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish darsliklar bajaradigan qaysi vazifaga kiradi?

A. Muvofiqlashtirish

B. Rivojlantiruvchi-tarbiyalash

C. O‘qitish

D. Nazorat-tuzatish

8. Darsliklarning nazorat-tuzatish vazifasiga qaysi javobda to‘g‘ri ta‘rif berilgan?

A. Axborotlarni yetkazish, bilimlar hajmini oshirish

B. Fanni o‘rganishga yo‘naltirish

C. Mashq qilish, ta‘lim natijalarini tekshirish, o‘quvchilarda o‘zini baholash, tuzatish layoqati va zarur ko‘nikma, malakalarni shakllantirish uchun mashqlarni tavsiya etish

D. Kitob bilan ishlashda o‘quvchilarda mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish

9. O‘quv dasturi nima?

A. Ta‘lim jarayonida ro‘y beradigan hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlar, ularning mohiyatini ifodalovchi shart-sharoit, asos

B. Har bir o‘quv predmetining mazmunini ochib beruvchi, muayyan o‘quv yilida o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi ko‘rsatilgan me‘yoriy hujjat

C. O‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, o‘quvchilar faoliyatini maqsadga yo‘naltirish loyihasi

D. Muayyan o‘quv fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malakalar mazmuni, umumiy vaqtning muhim bilimlarning o‘rganilishi bo‘yicha taqsimlanishi, mavzular ketma-ketligining belgilanishi va ularning o‘rganilish darajasini yorituvchi me‘yoriy hujjat

10. O‘quv dasturlarini tuzishda nimalarga asoslaniladi?

A. Ilmiylik, g‘oyaviylik, amaliyot va nazariya birligi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari

B. Tizimlilik, tarixiylik, ta‘lim-tarbiyaning o‘zaro aloqadorligi

- C. O'quv predmetlarining o'zaro bog'liqligi, o'quvchilar tarbiyasining ijtimoiy maqsadlarga mos kelishi
- D. Barcha javoblar to'g'ri

III VARIANT

1. Namunaviy o'quv dasturlari nimaga asosan yaratiladi?
 - A. U yoki bu ta'lim muassasasi sohasiga nisbatan davlat ta'lim standartlari talablari asosida ishlab chiqiladi
 - B. Bilim, ko'nikma va malakalarning to'la o'zlashtirilishining muvaffaqiyatli va samaradorligini belgilovchi mezon asosida ishlab chiqiladi
 - C. Ta'lim jarayonida ro'y beradigan hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar, ularning mohiyatini ifodalovchi shart-sharoitlar asosida ishlab chiqiladi
 - D. Rejalashtirish, tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish, natijalarni baholash kabi vazifalarni hal qilish asosida ishlab chiqiladi
2. O'quv-metodik majmua nima?
 - A. Qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid metodik ko'rsatmalar
 - B. Ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.
 - C. Darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita.
 - D. Darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovalaridan iborat majmua.
3. Darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri qanday ataladi?
 - A. Darslik
 - B. Mashq daftari
 - C. Metodik qo'llanma
 - D. O'quv-metodik majmua
4. Qaysi javobda darsliklarning multimediali ilovalariga to'g'ri ta'rif berilgan?
 - A. Video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi.
 - B. Davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan nashr

C. Darslikdagi har bir mavzuni samarali o'qitish metodikasi, qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan o'quv nashri

D. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni yorita oladigan o'quv nashri

5. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga qanday talablar qo'yiladi?

A. Barchasi to'g'ri B. Ilmiy-metodik talablar, estetik talablar C. Pedagogik-psixologik talablar

D. Didaktik talablar, gigiyenik talablar

6. Darslikdagi harflarning kattaligi va qog'ozning sifati qaysi talabga kiradi?

A. Gigiyenik talab B. Estetik talab C. Pedagogik-psixologik talab D. Didaktik talab

7. Darslikka qo'yiladigan estetik talablardan biri qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

A. Ranglarning aniq bo'lishi

B. Matn, illustratsiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo'lishi

C. O'quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini o'zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo'lishi

D. Bo'lim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibli ta'minlanishi

8. O'quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea-hodisalarning mohiyatini anglash va amaliy qiziqishlarini rivojlantirish masalasi darslik yaratishning qaysi talabiga xos?

A. Ilmiy-metodik talab B. Didaktik talab C. Pedagogik-psixologik talab D. Estetik talab

9. Darslikka qo'yiladigan ilmiy-metodik talablar berilgan javobni aniqlang.

A. Barcha javoblar to'g'ri

B. Mantiqiy ketma-ketlikka va izchillikka amal qilinishi; milliy g'oya va O'zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo'lmagan tegishli illustratsiyalar bilan boytilishi; savol va topshiriqlar aniq ifodalangan bo'lishi

C. O'quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o'tkazishga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo'lishi

D. Fan-texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi; o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlangan bo'lishi; o'quv fani mavzulari o'zbek adabiy tili qoidalari to'liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi

10. Darslikda bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalanishiga, sanalarni keltirishda mavhumlikka yo'l qo'yilmasligi qaysi talabga kiradi?

A. Pedagogik-psixologik

B. Ilmiy-metodik

C. Didaktik

D. Estetik

| | | | | |
|-------------------------------------|--|---|-------------------------------|--|
| Fan/modul kodi 500DIM | | O'quv yili 2022/2023 | Semestr 5 | ECTS-Kreditlar 4 |
| Fan/modul turi Qo'shimcha | | Ta'lim tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 4 soat |
| 1 | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Darsliklar bilan ishlash metodikasi | 60 | 60 | 120 |

I. FANNING MAZMUNI

O'quv fanining maqsadi: "Darsliklar bilan ishlash metodikasi" fanini o'qitishdan maqsad o'quvchilarning turli fan sohalariga oid bo'lgan bilimlarni egallashlarida, shu bilimlarni egallashga oid ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarida o'rni va ahamiyati katta bo'lgan o'quv darsliklaridan foydalanish usullari, berilgan materiallarning shakl va mazmun xususiyatlari, yutuq va kamchiliklarini tahlil qilishdan iborat. Bu ta'limning turli bosqichlarida qo'yiladigan umumiy maqsad va vazifalar bilan chambarchas bog'liqdir. "Darsliklar bilan ishlash metodikasi" fani o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlash, ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi yo'nalishidagi ilmiy-metodik tadqiqotlarni rivojlantirish, ta'lim tizimida ona tili va adabiyot o'qitishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'quv fanining asosiy vazifalari:

- ta'lim berish va ta'lim olish darslikdan boshlanishini tushuntirish;
- talabalarga zamon talablariga mos ravishda darsliklar bilan ishlashning eng qulay va zamonaviy metodlari to'g'risida bilim berish;
- bo'lg'usi fan o'qituvchisining kasbiy faoliyatidagi asosiy quroli bo'lgan darsliklar haqida dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- ularga qo'yiladigan kasbiy talablar asosida "Ona tili va adabiyot" fanini zamon talablari darajasida o'qitishning samarali metodlari, shakl va usullari haqidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirishini ta'minlash;
- respublika ta'lim sohasi uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash;
- ta'lim bosqichlaridagi darsliklarning tuzilishi, tarkibi, mazmuni, darslikni tahlil qilishga oid metodik yondashuvlar, yetakchi tamoyillar, shuningdek, ona tili va adabiyot o'qitishda darsliklar bilan ishlashning turli zamonaviy metod va usullaridan foydalanish tizimini ishlab chiqish va tavsiya etishdan iborat.

II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. "Darsliklar bilan ishlash metodikasi" fani haqida ma'lumot.

Fanning ilm-fan, iqtisodiyot va ishlab chiqarishdagi o'rni. Darsliklar bilan ishlash metodikasi fanining maqsadi, ta'limning turli bosqichlarida ona tili va adabiyot fanlari mohiyatini hamda ularni o'qitishdagi o'ziga xosliklarni o'rganish, bo'lajak o'qituvchilarni darsliklar ustida ishlashga yo'naltirish, talabalarda olingan bilimlarni amalda qo'llay olish malakasini shakllantirishdan.

2-mavzu. "Ona tili" va "Adabiyot" darsliklari. Ularga qo'yiladigan zamonaviy talablar.
Darslik o'quvchilar sinf ishlari va uy vazifalarini bajarishda foydalanishlari uchun

mo'ljallangan asosiy o'quv kitobi ekanligi. Darslik yaratishda tayaniladigan didaktik tamoyillar. Darsliklarning mazmuniga qo'yiladigan talablar. Darsliklarning metodik jihatiga qo'yiladigan talablar.

Darsliklarning tuzilishi, tarkibi va mazmuni. Darsliklar yaratilish tarixi. Ona tili darsliklarining yangi avlodini yaratishdagi yutuqlar.

3-mavzu. Umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimi "Ona tili" darsliklari, ularning tuzilishi, tarkibi, mazmuni va xususiyati

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, dastur va darslik. Umumta'lim maktablari ona tili darsliklari mazmuni. 5-9-sinflar ona tili darsliklari.

4-mavzu. Umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimi "Ona tili" darsliklari, ularning tuzilishi, tarkibi, mazmuni va xususiyatlari

O'rta maxsus, kasb-hunar maktablarida ona tili ta'limi, dastur va darslik.

5-mavzu. Ta'limning turli bosqichlaridagi "Ona tili" darsliklarining uzviyligi va uzluksizligi

Ta'limda uzviylik va uzluksizlik. Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida "Ona tili" darsliklarida tilshunoslik bo'limlarining taqsimlanishi, uzluksizligi.

6-mavzu. Darslik va o'quv qo'llanmalar bilan ishlash jarayonida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi.

Darslik bilan ishlashning shakl va usullari. Darsliklar bilan ishlashdagi yangi pedagogik texnologiyalar. Darslik va o'quvchining mustaqil ishlashini tashkil etish usullari.

7-mavzu. Adabiyot darsliklari, ularga qo'yiladigan zamonaviy talablar.

Adabiyot darsligining xususiyatlari. Ularga qo'yilgan zamonaviy didaktik va metodik talablar. Zamonaviy tendensiyalarning ta'siri.

8-mavzu. Adabiyot darsliklarining ta'lim bosqichlariga ko'ra turlari. Darslik, majmua, darslik-majmua, o'quv va metodik qo'llanmalar.

Ta'lim bosqichlarining turlari. Darslikning majmua, darslik-majmua, o'quv va metodik qo'llanmalardan farqi va ahamiyati.

9-mavzu. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Adabiyot" darsliklarining xususiyatlari

Umumiy o'rta ta'limda DTSlarining ahamiyati. Dastur va darslikning o'zaro bog'liqligi.

Umumiy o'rta ta'limda adabiy ta'limning o'rni va ahamiyati.

10-mavzu. Ta'limning turli bosqichlaridagi "Adabiyot" darsliklarining uzviyligi va uzluksizligi.

Uzviylik va uzluksizlikning ahamiyati. Spiralsimon ta'lim xususiyatlari.

II.2. MA'RUZA MAVZULARINI TAQSIMLANISHI

| № | Mavzular | Soati |
|-------------------|---|--------------|
| 5- semestr | | |
| 1 | "Darsliklar bilan ishlash metodikasi" fani haqida ma'lumot. | 2 |
| 2 | "Ona tili" va "Adabiyot" darsliklari. Ularga qo'yiladigan zamonaviy talablar. | 2 |
| 3 | Umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimi "Ona tili" darsliklari, ularning tuzilishi, tarkibi, mazmuni va xususiyati | 4 |
| 4 | Ta'limning turli bosqichlaridagi "Ona tili" darsliklarining uzviyligi va uzluksizligi | 2 |
| 5 | Darslik va o'quv qo'llanmalar bilan ishlash jarayonida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi. | 2 |
| 6 | Adabiyot darsliklari, ularga qo'yiladigan zamonaviy talablar. | 2 |
| 7 | Adabiyot darsliklarining ta'lim bosqichlariga ko'ra turlari. Darslik, majmua, darslik-majmua, o'quv va metodik qo'llanmalar. | 2 |
| 8 | Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Adabiyot" darsliklarining xususiyatlari | 2 |
| 9 | Ta'limning turli bosqichlaridagi "Adabiyot" darsliklarining uzviyligi va | 2 |

| | | |
|---|---------------|----------------|
| | uzluksizligi. | |
| | Ja'mi: | 20 soat |
| II.3. SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN MAVZULAR VA ULARNING MAZMUNI | | |
| <p>1-seminar mashg'ulot. Darslikka qo'yiladigan talablar. Umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili darsliklari tahlili "Ona tili" darsliklarining tarkibi, tuzilishi, mazmuniy mundarijasi. Yutuq va kamchiliklari.</p> <p>2-seminar mashg'ulot. Tilni o'qitishda kommunikativ yondashuv. 5-sinf "Ona tili" darsligi ustida ishlash. Tilni o'qitishda kommunikativ yondashuv tamoyillari. Yangi darslikdan kommunikativ yondashuv asosidagi mashqlarni topish va shu tipdagi mashqlarni bajarish uchun yo'riqnomalar tayyorlash.</p> <p>3- seminar mashg'ulot. Yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish usullari. 6-sinf "Ona tili" darsligi ustida ishlash. Yozma nutq – akademik bilim. Yangi darslikdan yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan, tilni o'qitishda kommunikativ yondashilgan mashqlarni topish va shu tipdagi mashqlarni bajarish uchun yo'riqnomalar tayyorlash.</p> <p>4-seminar mashg'ulot. Ona tili darslarida o'qib tushunish malakasini rivojlantirish. 7-sinf "Ona tili" darsligi ustida ishlash. Psixolingvistika. O'qib tushunish jarayoni. Yangi darslikdan o'qib tushunish malakasini rivojlantirishga, yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan, tilni o'qitishda kommunikativ yondashilgan mashqlarni topish va shu tipdagi mashqlarni bajarish uchun yo'riqnomalar tayyorlash.</p> <p>5-seminar mashg'ulot. Til ta'limida mantiqiy mushohadaning o'rni. 8-sinf "Ona tili" darsligi ustida ishlash. Til va tafakkur. Mantiqiy mushohada. Yangi darslikdan mantiqiy mushohadani o'stirishga, o'qib tushunish malakasini rivojlantirishga, yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan, tilni o'qitishda kommunikativ yondashilgan mashqlarni topish va shu tipdagi mashqlarni bajarish uchun yo'riqnomalar tayyorlash.</p> <p>6-seminar mashg'ulot. O'zbek tili darslarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish. 9-sinf "Ona tili" darsligi ustida ishlash. Hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish usullari. Yangi darslikdan hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga, mantiqiy mushohadani o'stirishga, o'qib tushunish malakasini rivojlantirishga, yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan, tilni o'qitishda kommunikativ yondashilgan mashqlarni topish va shu tipdagi mashqlarni bajarish uchun yo'riqnomalar tayyorlash.</p> <p>7-seminar mashg'ulot. O'zbek tili darslarida baholash strategiyalari. 10-sinf "Ona tili" darsligi ustida ishlash. O'zbek tili darslarida baholash usullari. Yangi darslikdan hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga, mantiqiy mushohadani o'stirishga, o'qib tushunish malakasini rivojlantirishga, yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan, tilni o'qitishda kommunikativ yondashilgan mashqlarni topish va shu tipdagi mashqlarni bajarish uchun yo'riqnomalar tayyorlash. O'quvchilarni baholashning yangi usullarini kashf etish.</p> <p>8-seminar mashg'ulot. Ona tili darslari orqali shaxsiy fazilatlarini rivojlantirib borish usullari. 11-sinf "Ona tili" darsligi ustida ishlash. 11-sinf "Ona tili" darsligidagi mavzular uchun yangicha talqindagi dars ishlanmalari</p> | | |

tayyorlash.

9-seminar mashg'ulot. Yangi metodlar yaratish, darslarga ijodiy yondashish usullari.

Ustozlardan darslarga ijodiy yondashish tajribalarini so'rab, intervyu olish. Darsda boshqa talabalar bilan o'rtoqlashish.

10-seminar mashg'ulot. O'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitishda zamoviy usul va yondashuvlar.

O'zga tili sinflarning "Ona tili" darsliklari tahlili.

11-seminar mashg'ulot. 5-sinf "Adabiyot" darsligi ustida ishlash.

5-sinf "Adabiyot" darsligida berilgan mavzular yuzasidan savol va topshiriqlar, test savollari tuzish.

12-seminar mashg'ulot. 6-sinf "Adabiyot" darsligi ustida ishlash.

6-sinf "Adabiyot" darsligida berilgan mavzular yuzasidan savol va topshiriqlar, test savollari tuzish.

13-seminar mashg'ulot. 7-sinf "Adabiyot" darsligi ustida ishlash.

7-sinf "Adabiyot" darsligida berilgan mavzular yuzasidan savol va topshiriqlar, test savollari tuzish.

14-seminar mashg'ulot. 8-sinf "Adabiyot" darsligi ustida ishlash.

8-sinf "Adabiyot" darsligidagi ayrim mavzular misolida noan'anaviy dars ishlanmasi tayyorlash, nazariy ma'lumotlarni o'quvchilarga samarali yetkazish usullarini muhokama qilish.

15-seminar mashg'ulot. 9-sinf "Adabiyot" darsligi ustida ishlash.

9-sinf "Adabiyot" darsligidagi ayrim mavzular misolida noan'anaviy dars ishlanmasi tayyorlash, nazariy ma'lumotlarni o'quvchilarga samarali yetkazish usullarini muhokama qilish.

16-seminar mashg'ulot. 10-sinf "Adabiyot" darsligi ustida ishlash.

10-sinf "Adabiyot" darsligidagi ayrim mavzular misolida taqdimot tayyorlash, nazariy ma'lumotlarni o'quvchilarga samarali yetkazish usullarini muhokama qilish.

17-seminar mashg'ulot. 11-sinf "Adabiyot" darsligi ustida ishlash.

11-sinf "Adabiyot" darsligidagi ayrim mavzular misolida taqdimot tayyorlash, nazariy ma'lumotlarni o'quvchilarga samarali yetkazish usullarini muhokama qilish.

18-seminar mashg'ulot. Adabiyot darslari uchun qo'shimcha adabiy-tanqidiy materiallar tanlash. "Sharq yulduzi", "Jahon adabiyoti", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetalaridagi tanqidiy-tahliliy maqolalar bilan tanishish

19-seminar mashg'ulot. Adabiyot darslarida lug'atlar bilan ishlash usullari. Izohli lug'at ustida ishlash.**20-seminar mashg'ulot. Nasriy, lirik, drammatik asarlar uchun ijodiy topshiriqlar tuzish.** Adabiy turlar haqida. Adabiy turlarga mansub janrlar, asarlarning qaysi janr, qaysi adabiy guruhga mansubligi haqida.

III.2. SEMINAR MASHG'ULOT MAVZULARINING TAQSIMLANISHI

| № | Seminar mashg'ulot mavzulari | Soati |
|---|--|-------|
| | 5- semestr | |
| 1 | Darslikka qo'yiladigan talablar. Umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili darsliklari tahlili | 2 |
| 2 | Tilni o'qitishda kommunikativ yondashuv. 5-sinf "Ona tili" darsligi | 2 |

| | | |
|----|---|-----------|
| | ustida ishlash. | |
| 3 | Yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari. 6-sinf “Ona tili” darsligi ustida ishlash. | 2 |
| 4 | Ona tili darslarida o‘qib tushunish malakasini rivojlantirish. 7-sinf “Ona tili” darsligi ustida ishlash | 2 |
| 5 | Til ta’limida mantiqiy mushohadaning o‘rni. 8-sinf “Ona tili” darsligi ustida ishlash | 2 |
| 6 | O‘zbek tili darslarida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish. 9-sinf “Ona tili” darsligi ustida ishlash | 2 |
| 7 | O‘zbek tili darslarida baholash strategiyalari. 10-sinf “Ona tili” darsligi ustida ishlash | 2 |
| 8 | Ona tili darslari orqali shaxsiy fazilatlarni rivojlantirib borish usullari. 11-sinf “Ona tili” darsligi ustida ishlash | 2 |
| 9 | Yangi metodlar yaratish, darslarga ijodiy yondashish usullari. | 2 |
| 10 | O‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitishda zamoviy usul va yondashuvlar | 2 |
| 11 | 5-sinf “Adabiyot” darsligi ustida ishlash | 2 |
| 12 | 6-sinf “Adabiyot” darsligi ustida ishlash | 2 |
| 13 | 7-sinf “Adabiyot” darsligi ustida ishlash | 2 |
| 14 | 8-sinf “Adabiyot” darsligi ustida ishlash | 2 |
| 15 | 9-sinf “Adabiyot” darsligi ustida ishlash | 2 |
| 16 | 10-sinf “Adabiyot” darsligi ustida ishlash | 2 |
| 17 | 11-sinf “Adabiyot” darsligi ustida ishlash | 2 |
| 18 | Adabiyot darslari uchun qo‘shimcha adabiy-tanqidiy materiallar tanlash | 2 |
| 19 | Adabiyot darslarida lug‘atlar bilan ishlash usullari | 2 |
| | Nasriy, lirik, drammatik asarlar uchun ijodiy topshiriqlar tuzish | 2 |
| | Ja’mi | 40 |

IV. MUSTAQIL MASHG‘ULOT

| Mustaqil mashg‘ulot mavzulari | | soati |
|-------------------------------|---|-------|
| 1 | 5-sinf “Ona tili” darsligi asosida fonetika va grafika tilshunoslik bo‘limlari yuzasidan test savollari tuzish. | 1 |
| 2 | 5-sinf “Ona tili” darsligi asosida leksikologiya tilshunoslik bo‘limi yuzasidan test savollari tuzish. | 1 |
| 3 | 5-sinf “Ona tili” darsligi asosida punktuatsiya tilshunoslik bo‘limi yuzasidan test savollari tuzish. | 1 |
| 4 | 5-sinf “Ona tili” darsligi asosida lug‘at tayyorlash | 1 |
| 5 | 6-sinf “Ona tili” darsligi asosida fe‘l turkumi yuzasidan test savollari tuzish. | 1 |

| | | |
|----|--|---|
| 6 | 6-sinf “Ona tili” darsligi asosida ot, sifat, son so‘z turkumlari yuzasidan test savollari tuzish. | 1 |
| 7 | 6-sinf “Ona tili” darsligi asosida ravish so‘z turkumi yuzasidan test savollari tuzish. | 1 |
| 8 | 6-sinf “Ona tili” darsligi asosida o‘quvchi uchun tushunilishi qiyin so‘zlar lug‘atini tuzish. | 1 |
| 9 | 7-sinf “Ona tili” darsligi asosida yordamchi so‘z turkumlari yuzasidan test savollari tuzish. | 1 |
| 10 | 7-sinf “Ona tili” darsligi asosida alohida olingan so‘z turkumlari yuzasidan test savollari tuzish. | 1 |
| 11 | 7-sinf “Ona tili” darsligi asosida o‘quvchi uchun tushunilishi qiyin so‘zlar lug‘atini tuzish. | 1 |
| 12 | 8-sinf “Ona tili” darsligi asosida so‘z birikmasi mavzusi yuzasidan test savollari tuzish. | 1 |
| 13 | 8-sinf “Ona tili” darsligi asosida gap bo‘laklari yuzasidan test savollari tuzish. | 1 |
| 14 | 8-sinf “Ona tili” darsligi asosida ajratilgan va uyushiq bo‘laklar mavzusi yuzasidan test savollari tuzish. | 1 |
| 15 | 8-sinf “Ona tili” darsligi asosida o‘quvchi uchun tushunilishi qiyin so‘zlar lug‘atini tuzish. | 1 |
| 16 | 9-sinf “Ona tili” darsligi asosida sodda va qo‘shma gaplar sintaksisi mavzusi yuzasidan test savollari tuzish. | 1 |
| 17 | 9-sinf “Ona tili” darsligi asosida bog‘langan qo‘shma gaplar mavzusi yuzasidan test savollari tayyorlash | 1 |
| 18 | 9-sinf “Ona tili” darsligi asosida ergashgan qo‘shma gaplar mavzusi yuzasidan test savollari tayyorlash. | 1 |
| 19 | 9-sinf “Ona tili” darsligi asosida o‘quvchi uchun tushunilishi qiyin so‘zlar lug‘atini tuzish. | 1 |
| 20 | 5-sinf “Ona tili” darsligi asosida mashqlar ishlanmasi tayyorlash. | 1 |
| 21 | 6-sinf “Ona tili” darsligi asosida mashqlar ishlanmasi tayyorlash. | 2 |
| 22 | 7-sinf “Ona tili” darsligi asosida mashqlar ishlanmasi tayyorlash. | 2 |
| 23 | 8-sinf “Ona tili” darsligi asosida mashqlar ishlanmasi tayyorlash. | 2 |
| 24 | 9-sinf “Ona tili” darsligi asosida mashqlar ishlanmasi tayyorlash. | 2 |
| 25 | 10-sinf “Ona tili” darsligi asosida test savollari tuzish. | 2 |
| 26 | 10-sinf “Ona tili” darsligi asosida o‘quvchi uchun tushunilishi qiyin so‘zlar lug‘atini tuzish. | 2 |
| 27 | 10-sinf “Ona tili” darsligi asosida mashqlar ishlanmasi tayyorlash. | 2 |
| 28 | 11- sinf “Ona tili” darsligi asosida test savollari tuzish. | 2 |
| 29 | 11-sinf “Ona tili” darsligi asosida o‘quvchi uchun tushunilishi qiyin so‘zlar lug‘atini tuzish | 2 |
| 30 | 11-sinf “Ona tili” darsligi asosida mashqlar ishlanmasi tayyorlash. | 2 |
| 31 | 5-sinf “Adabiyot” darsligi asosida test savollari tuzish. | |
| 32 | 6-sinf “Adabiyot” darsligi asosida test savollari tuzish. | |
| 33 | 7-sinf “Adabiyot” darsligi asosida test savollari tuzish. | |

| | | |
|----|---|-----------|
| 34 | 8-sinf “Adabiyot” darsligi asosida test savollari tuzish. | |
| 35 | 9-sinf “Adabiyot” darsligi asosida test savollari tuzish. | |
| 36 | 10-sinf “Adabiyot” darsligi asosida test savollari tuzish. | |
| 37 | 11-sinf “Adabiyot” darsligi asosida test savollari tuzish. | |
| 38 | Adabiyot darsliklari asosida dars ishlanmalari tayyorlash. | |
| 39 | Adabiyot darsliklarida keltirilgan badiiy asarlarning to‘liq shakli yuzasidan referat tayyorlash. | |
| 40 | Adabiyot darslarida gazeta, jurnallardan manba sifatida foydalanish mavzusida referat tayyorlash. | |
| | Ja’mi: | 60 |

V. FAN O‘QITILISHINING NATIJALARI (SHAKLLANADIGAN KOMPETENSIYALAR)

Darsliklardan foydalanish metodikasi o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- ona tili va adabiyot darsliklarining ta’lim bosqichlariga ko‘ra turlari;
- darslikning tuzilishi, tarkibi va mazmuni haqida bilimga ega bo‘lishi;
- umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ona tili va adabiyoti darsliklari mazmuni va xususiyatlari;
- ta’lim bosqichlaridagi darsliklaridagi materiallarni uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida tahlil qilish ko‘nikmalariga;
- darsliklardan ta’lim jarayonida to‘g‘ri va samarali foydalana olish malakasiga ega bo‘lishi kerak.

VI. TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI

- ✓ ma’ruzalar;
- ✓ interfaol keys-stadilar;
- ✓ seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- ✓ guruhlarda ishlash;
- ✓ individual loyihalar
- ✓ jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

VII. KREDITLARNI OLIISH UCHUN TALABLAR

Fanga ajratilgan kreditlar talabalarga har bir semestr bo‘yicha nazorat turlaridan ijobiy natijalarga erishilgan taqdirda taqdim etiladi.

Fan bo‘yicha talabalar bilimni baholashda oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlari qo‘llaniladi. Nazorat turlari bo‘yicha baholash: 5 – “a’lo”, 4 – “yaxshi”, 3 – “qoniqarli”, 2 – “qoniqarsiz” baho mezonlarida amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat har semestrda bir marta yozma ish shaklida o‘tkaziladi.

Talabalar semestrlar davomida fanga ajratilgan amaliy (seminar) mashg‘ulotlarda muntazam, har bir mavzu bo‘yicha baholanib boriladi va o‘rtachalanadi. Bunda talabaning amaliy (seminar) mashg‘ulot hamda mustaqil ta’lim topshiriqlarini o‘z vaqtida, to‘laqonli bajarganligi, mashg‘ulotlardagi faolligi inobatga olinadi.

Shuningdek, amaliy (seminar) mashg'ulot va mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha olgan baholari oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda inobatga olinadi. Bunda har bir oraliq nazorat turi davrida olingan baholar o'rtachasi oraliq nazorat turidan olingan baho bilan **qayta o'rtachalanadi**.

O'tkazilgan oraliq nazoratlardan olingan baho **oraliq nazorat natijasi** sifatida qaydnomaga rasmiylashtiriladi.

Yakuniy nazorat turi semestrlar yakunida tasdiqlangan grafik bo'yicha yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlarida:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (vaxshi) baho**;

Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

VIII. FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A., Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.:O'qituvchi.1992.
2. Roziqov O. v.b. Ona tili didaktikasi. – T.:Yangi asr avlodi,2005.
3. G'ulomov A., Qodirov M.v.b. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.:Fan va texnologiyalar,2012.
4. To'xliyev, R.Niyozmetova, I.Boltaboyeva. Darsliklar ustida ishlash.-T.:Fan,2007.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo'raboyeva. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik/To'ldirilgan 4-nashri. – T.:Ma'naviyat, 2015.-224 b.
2. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun.-T.:Tasvir, 2017.-208 b.
3. N.Mahmudov va boshq. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik/To'ldirilgan va qayta ishlangan nashr.-T.:Ma'naviyat,2017.-160 b.

4. M.Qodirov, H.Ne'matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. –T.:Cho'lpon nomidagi NMIU,2014.-144 b.
5. N.M.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sh.Sobirov. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. –T.:Tasvir, 2010.-128 b.
6. N.M.Mahmudov v.b. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik.- T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.-112 b
7. N.M.Mahmudov v.b. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi va kasb-hunar ta'limi muassalari o'quvchilari uchun darslik.- T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.-112 b
8. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylarning 1-2-3-bosqich talablari uchun darslik. –T.:Xalq merosi,2013.
9. Matchonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar.- T.:O'qituvchi.1996.
10. Matchonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – T.: O'qituvchi. 1996.
11. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O'qituvchi, 1996.
12. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan, 2006.
13. Niyozmetova R. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. T.: Fan, 2007.
14. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. 1-, 2-qism. – T.: Sharq, 2015.
15. Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik-majmua. – T.: Ma'naviyat, 2017.
16. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik-majmua. – T.: Sharq, 2017.
17. Olimov S., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2019.
18. Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. – T.: O'zbekiston, 2019.
19. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. 1-, 2- qism. 10-sinf uchun darslik-majmua. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2017.
20. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. 1-,2- qism. 11-sinf uchun darslik-majmua. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018.
21. To'xliyev B. Adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T.: O'qituvchi. 2008.
22. Husanboyeva Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo'li. – T.: Muharrir, 2013.

23. Yo'ldoshev Q., Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016.

Internet saytlari

1. <http://www.ziyonet.uz/>
2. <http://www.pedagog.uz/>
3. www.forum.uz
4. www.ilm.uz
5. www.google.uz

Namangan davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan:

- O'zbek tilshunosligi kafedrasining ____yil, ____dagi ____-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

- Filologiya fakulteti kengashining ____yil, ____dagi ____-sonli majlisida ma'qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

- NamDU o'quv-uslubiy kengashining ____yil, ____dagi ____-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Fan/modul uchun mas'ul:

M.Usmonov - Namangan davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

U.Qo'ziyev – NamDU O'zbek tilshunosligi kafedrasida mudiri, PhD.